

Жадид

2025-yil 11-aprel
№ 15(67)
www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz



(7-sahifada o'qing).

TAASSUROT



NATIJALARGA QAT'IY ISHONAMIZ

O'zbekistonning olib borayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida mamlakat bugun dunyo davlatlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash va yanada kengaytirishga qaratilgan yirik anjumanlar va forumlarga mezonlik qilmoqda. Qadimiy Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Markazi Osiyo – Yevropa Ittifoqi birinchi rasmiy sammiti, Xalqaro iqlim forumi, Toshkent shahridagi Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasiga bunga yaqqol misoldir.

Mintaqa davlatlariga bir vaqtar uchinchini davlat sifatida qarashadi, bugun esa Markazi Osiyo Yevropa Ittifoqining munosib hamkor sanaladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan mintaqa davlatlari o'z taraqqiyoti uchun o'zi sarmoya kiritdi. O'zbekiston misolida aytadigan bo'sam, mamlakat o'ta muhim sohalarga, xususan, iqlim muhofazasi, "yashil" va barqaror rivojlanishga, buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda yoshlarning sifatini tal'im olishi, jamiyatda o'z o'rnnini topishi va munosib ish o'rinalarini egallashiga katta e'tibor qaratmoqda.

Markazi Osiyo va Yevropa Ittifoqi rahbariyatining olyi darajadagi uchrashuvi o'zaro hamkorlik yo'lida yanada birlashishga qaratilgan tarixiy ahamiyatiga ega dunyo miqyosidagi yirik anjuman bo'ldi. Mintaqa davlatlarining o'zaro hamjihatlikda va birlgilikda rivojlanish yo'lidan borayotgani ulami yanada kuchliroq qiladi. Biz yevropaliklar bunday ishonchli sheriklar bilan butunlay yangi iqtisodiy istiqbollar bo'yicha hamkorlik qilamiz va bu orqali bir-birimizdan o'rganamiz.

(Davomi 2-sahifada).

JARAYON

SUN'IY INTELLEKT VA TARIX – YANGICHA TALQIN



Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda, o'zgarishlar ko'lami keng, yangiliklar oqimi dolg'ali. Hozirda sun'iy intellekt asr mo'jizasi sifatida namoyon bo'lib, insoniyatni qayta-qayta hayratga solyapti. U kirib bormagan soha, tatbiq qilinmayotgan yo'nalishning o'zi yo'q hisob.

Rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt imkoniyatlari joriy etilgan yuzlab turli xil xizmatlar paydo bo'limoqda.

"Next Move Strategy Consulting" kompaniyasining boshoratiga ko'ra, 2030-yilga borib global sun'iy intellekt bozori sarmoyasi 1,8 trillion dollarga yetadi. Yurtimizda ham bu borada izlanishlar allaqachon boshlangan, reja va maqsadlar aniqlab olingan. 2024-yil 14-otkabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini 2024–2026-yillarda amalga osdirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga tasdiqlanib, sohaning 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan.

Ahamiyatlisi shundaki, hozirda ijtimoiy tarmoqlarda sun'iy intellekting turli xildasturlari orqali o'zbek qadriyati, madaniyati, tarixini tiklash, jondorishga qaratilgan ko'plab milliy kontentlar paydo bo'limoqda.

Albatta, yangilikning kirib kelgani, ommalashayotgani

va keng yoyilayotgani yaxshi. Biroq axborot asrining o'z-garmas bir haqiqati ham bor. Bu maydonda doimiy izlanish, aniq, tahliliy, haqiqatga asoslangan ma'lumotlarni ko'paytirish bilangina turli xurujlarga qarshi turish mumkin. Bugun sun'iy intellekt orqali o'tmish, qadriyat, buyuk shaxslarning qiyofasi, tarixiy faktlar buzib ko'rsatilayotgan holatlar ham, afuski, yo'q emas.

Bularning oldini olish uchun suhbat quruvroq kirib borish, haqqoni ma'lumotlar bazasini mustahkamlab, sifati va sonini ko'paytirish lozim.

Shu bois Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ziyyolar: olimlar, yozuvchilar, tarixchilar ishtirokida yangi loyiha yo'lg'a qo'yildi.

Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad sun'iy intellekt imkoniyatidan to'g'ri foydalanim, buyuk tarixiy ajodalarni, ularning boy ilmiy, tarbiyaviy merosini olimlar fikriga tayangan holda jondorish, animatsion rolik, qisqa metrajli film, turli xil musiqa metrajli film, turli xil musiqlar yaratishdir.

Shu maqsadda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xalqaro Amir Temur jamoati fondi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda tarixchi olimlar, manba shunoslar,


tadqiqotchilar jalb qilingan holda sun'iy idrok yordamida tarixiy shaxslarning obrazini yaratish ustida ishlamoqda. Loyihaning dastlabki bosqichida buyuk sarkarda Amir Temur bobomining qiyofasi jondorilirildi. Tayorlangan mediamahsulot bilan tanishgan professor, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali shunday fikrlarni bildirdi:

– Amir Temur haykali ijodkoril hom Jabborov bilan juda ko'p suhbatda bo'lganman. Usta haykalni juda jo'yali, aniq keltirilgan chizgilar asosida bunyod qilgan. Bir xil, ya'ni yagona maqbul qiyofada to'xtalishimiz kerak! Masalan, Pyotr Birinchi desa, faqat bitta siymo ko'z oldimizda gavdalananadi. Yo bo'limasa Napoleon Bonapart, hattoki Sezar deganda ham barcha faqat bir xil qiyofan eslaydi. Vaholanki, u miloddan avvalgi asrlarda yashab o'tgan. Amir Temur deganda butun dunyo ko'z o'ngida har xil emas, balki bitta siymo gavdalaniishi kerak!

Albatta, sun'iy intellekt yordamida o'tmishni, tarixiy shaxslarini yosh avlod ko'z o'ngida gavdalantirish mas'uliyatlari va g'oyat murakkab vazifa.

(Davomi 2-sahifada).

GURUNG



ADAB YOTLARDAN ADABIYOT QUTQARADI

Suhbatdoshimiz – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor ESHONQL

– Jabbor aka, Sizni folklorshunos olim, mohir tarjimon sifatida bilamiz. Sohada yuzlab ilmiy maqolalar muallifisiz. Bu raqam tagzamirid yotgan mehnati biz bilan baham ko'sangiz. Bugungi shiddatli zamonda adabiyot va san'atning ahamiyati haqida fikrlaringiz bilan o'tqoqlashsangiz.

– Adabiyotga, so'zga ehtiyoj qadim davrlardan bugungi kunga qadar zinhor susaymagan. Insoniyat tarixini ona tili taraqqiyoti, badiy so'z san'ati tarxi, deyishimiz mumkin. Hali yozuv kashf qilinmasdan oldin ajodalrimiz o'zining shoni o'tmishi, madaniyati, qadim tushuncha-tasavvurlarini so'zga boqiy muhurlab, oldiniga og'zaki tarzda meros qoldig'an. "Alpomish", "Go'ro'g'i" dostonlari avlodlarga mana

hisoblanadi.

(Davomi 4-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI

BEHBUDIY VA JUG'ROFIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilda "Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiya tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ma'rifatparvar bobomiz merosini har tomonlama o'rganish uchun muhim asos vazifasini o'taydi.

ILM YO'LI

INNOVATSION YONDASHUV ZARURATI

Umida TILLABOYEVA – mehnat resurslarini boshqarish va iqtisodiy tadqiqotlar sohasidagi zamonaliv yondashuvlarni ilgari surayotgan yosh olimalardan biri. U ayni paytda G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida aspirant va o'qituvchi. Mehnat bozoridagi muammolarni tahsil qilish hamda O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga oid yangi strategiyalar ustida ish olib bormoqda. U bilan mehnat resurslarini boshqarishda an'anaviy modellarni qayta ko'rib chiqish va kimyo sanoatidagi imkoniyatlar haqidagi suhbatlashdi.



– Umida, suhbatimiz avvalida o'zingiz va ilmiy tadqiqotlaringiz haqidagi qisqacha ma'lumot bersangiz.

– Ayni damda "Innovatsion iqtisodiyotda mehnat salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalananish mekanizmi" (O'zbekiston kimyo sanoati misolida) mavzusida ilmiy tadqiqot olib boryapman. Asosiy e'tiborim kimyo sanoatida kadrlar

uchinchini shaxsni abadiylashtirish lozim bo'lsa, shubhasisiz, bu Mahmudxo'ja Behbudiylidir, deb yozgan edi.

Behbudi qator djamiatlari kezib chiqqan sayyoh, o'z kuzatishlari natijasida yangi uslub maktablari uchun geografiya fanidan muhim darsliklarni birinchi bo'lib yaratgan olimdir.

(Davomi 6-sahifada).

(Davomi 3-sahifada).



SUN'YIY INTELLEKT VA TARIX – YANGICHA TALQIN

Boshlanishi 1-sahifada..

Maqsadimiz tariximizni, buyuk ajoddalarimiz siyosini asosli manbalarga tayani, haqqoniy aks ettirish, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. – Negaki, bu qiyofalarni o'zimiz to'g'ri talqinda gavdalantirmsak, sun'iy idrok uni o'zi istagancha, o'zi bilgancha ruhsiz talqinda dunyoga taqdum etadi. Misol uchun, sun'iy idrokka Amir Temurni tasvirlab ber desangiz, u sizga turli xil qiyofali "sohibqiron"ni ko'rsatadi. Bugun mana shu dolzarb masala o'z yechimini kutyapti. 50–100 yillardan keyingi avlod tarixni kitoblardan qidirmsaligi mumkin. Ularning biliม, dunyoqarashi media taassurat asosida shakllanadi. Demakki, mutaxassislarimiz kelajakni ham ko'zlab, savolga o'ren qolmaydigan darajada tarixiy qiyofalarni jonlanitirish berishlari kerak.

Jiodiy jarayonni kuzatar ekanmiz, tarixchi olimlar va media mutaxassislar qizg'in munozara hamda bahslerda izlanish olib borayotganiga guvoh bo'ldik. Loyha doirasida Temur bobomizing shaxsi, qiyofasi, yuz tuzilishi, ko'z qarashi, libostari, xatti-harakatlari, ovozi hamda tabiatidagi o'ziga xoslikning to'laqonli ifodasi sun'iy intellektning ma'lumotlar bazasiga joylab borilyapti.

Loyha ustida ishlayotgan soha mutaxassis Davlat Hamroqulovning

ta'kidlashicha, manbalarda keltirilgan ma'lumotlar va bizga tanish bo'lgan suratlar asosida izchil izlanishlar olib borildi:

– Tarixiy siyomoning obrazini shakllantirishning o'ziga yarasha qizinchiligi va mas'uliyati bor, albatta. Bu yerdagi zargaroni nigoh va me'yor kerak. Uzoq izlanishlar samaras o'laroq, buyuk bobomizing qiyofasi manbalardagi o'xshadi, degan to'xtamga kelindi. Shundan so'ng sun'iy intellektidan tasdiq xati keldi. Biz yaratgan surat unga ma'qul kelgani va ushbu media mahsulotni tavsiyaviy ilovalarga joylashtirish paytda rozilik berishimizni so'radi.

Otabek Hasanovning aytilishicha, Sohibqironning 690 yillik yubileyiga, ya'ni bir yil muddatda Amir Temur haqidagi barcha ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarga joylanadi:

– Biz nimani xohlayapmiz? Amir Temur haqida qidiruv tugmasi bosilganda birinchi bo'lib, asoslangan va to'g'ri talqindagi ilmiy tasdig'i topgan siymo qiyofasi foydalanuvchiga taqdim etilishini maqsad qilganmiz. Bu natijaga erishish uchun biz bor texnik imkoniyatlarimizni ishga solamiz, olimlarimizdan esa bilim, fidoyilik va vatanparvarlik taqozo etiladi.

Bahora AHMEDOVA,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi Axborot xizmati
rahbari

MUNOSABAT

DUNYO PARLAMENTLARI VAKILLARI O'ZBEKISTONDA

Dunyo hamjamiyati ilk bor O'zbekistonda o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasini katta qiziqish bilan kuzatib bordi. Yurtimizga tashrif buyurgan siyosatchi-mehmonlar ushbu nufuzli anjuman orqali jahon hamjamiyati tomonidan O'zbekistonning xalqaro siyosiy markazlardan biri sifatida e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlashdi.



– O'zbekiston mintaqada birin-chilardan bo'lib ushbu anjumanga mezbonlik qilgani va uning muvaffaqiyatlari o'tayotgani e'tirofa molik, – deydi Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson xonim. – Shu o'rinda, yurtingizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi samara berayotganini ham tilga olishimiz kerak. Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan barqaror konstruktiv hamda pragmatik tashqi siyosat mintaqaga taraqqiyotiga ham xizmat qilayotganini ta'kidlashim lozim. Anjuman doirasida muhokama qilingan masalalar muhim ahamiyatga ega. Bildirilgan taklif va mulohazalar xalqaro hamjamiyatning barqaror rivojlanish

maqsadlariga erishishda juda muhim. Ittimoiy adolatni ta'minlash va demokratik qadriyatlarini oldinga surishda bu kabi muloqotlar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning Parlamentlararo Ittifoqqa a'zoli 2017-yilda, ya'ni O'zbekiston o'z taraqqiyotida yangi bosqichga o'tgan vaqtida, izchil islohotlarni dadil boshlagan paytda qayta tiklandi.

Assambleya doirasida belgilangan tadbirdorda so'zga chiqqanlar Toshkent – parlament diplomatiyasingin poytaxtiga aylanganini e'tirof etib, bu yig'ilish global hamjamiyat duch kelayotgan muammolar, ziddiyatlar va nizolarni muloqot orqali hal qilish mumkinligini ko'rsatuvchi namuna-naga aylanishiga ishnoch bildirishdi.

Litva parlamenti a'zosi, delegatsiya rahbari Ruta Milute yurtimizga ilk bor tashrif buyurganini ta'kidlarkan, tadbirning ahamiyati xususida shunday mulohazalar bildirdi:



– Hozir dunyo juda tez o'zgar moqda. Geosiyoziy ziddiyatlar ko'paymoqda. Bunday vaziyatda butun dunyodan parlament a'zolari rivojlanishni barqaror qilayotganini ta'kidladi.

Shuhrat SHARAFIDDINOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zLiDeP fraksiysi rahbari o'rinnbosari

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan demokratiq islohotlarni yuqori baholab, so'nggi yillarda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qat'iy qadam yo'ygani, mamlakatda barcha sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar dunyo hamjamiyati tomonidan keng qol'lab-quvvatlanayotganini ta'kidlashdi.

Parlamentlararo Ittifoq (PI)ning

150-yubiley assambleyasini doirasida Ozarbayjon parlamenti tomonidan Qo'shilmaslik harakati parlament tarmog'ining 4-konferensiysi o'tkazildi. Unda Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Ra'si Sahiba Gafarova, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Raisi Tanzila Norboyeva, Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson, PI Bosh kotibi Martin Chungong hamda Qo'shilmaslik harakatiga a'zo boshqa davlatlar parlamentlari vakillari ishtiroy etdi. O'zbekiston ushbu harakatning faol ishtiroychisi sifatida tashqi siyosatda kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, davlatlarning hududiy yaxlitligi, boshqa davlatlarning ichki ishlarga aralashmaslik kabi ustuvor tamoyillarni ilgari surdi. Konferensiya yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mazkur nufuzli tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi xalqaro hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etildi. Prezidentimiz o'z nutqida barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan masalalarga alohida to'xtalib o'tarkan, ularning samarali yechimlari bu – hamkorlik, o'zaro muloqot, tajriba almashtish, diplomatiyani kuchaytirish ekanini ta'kidladi.

Nufuzli mamlakatlar vakillari



Shuhrat SHARAFIDDINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati,
O'zLiDeP fraksiysi rahbari
o'rinnbosari

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan demokratiq islohotlarni yuqori baholab, so'nggi yillarda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qat'iy qadam yo'ygani, mamlakatda barcha sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar dunyo hamjamiyati tomonidan keng qol'lab-quvvatlanayotganini ta'kidlashdi.

Parlamentlararo Ittifoq (PI)ning 150-yubiley assambleyasini doirasida Ozarbayjon parlamenti tomonidan Qo'shilmaslik harakati parlament tarmog'ining 4-konferensiysi o'tkazildi. Unda Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Ra'si Sahiba Gafarova, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Raisi Tanzila Norboyeva, Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson, PI Bosh kotibi Martin Chungong hamda Qo'shilmaslik harakatiga a'zo boshqa davlatlar parlamentlari vakillari ishtiroy etdi. O'zbekiston ushbu harakatning faol ishtiroychisi sifatida tashqi siyosatda kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, davlatlarning hududiy yaxlitligi, boshqa davlatlarning ichki ishlarga aralashmaslik kabi ustuvor tamoyillarni ilgari surdi. Konferensiya yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mazkur nufuzli tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoq raisi Tuliya Ekson va bosh kotibi Martin Chungongdan iborat delegatsiyani qabul qildi.

Prezidentimiz farmoni bilan Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong "Do'stlk" ordeni bilan taqdirlandi.

TAFSILOT

ASRGA TATIGULIK UCH KUN



Hanifa SOYLU,
Sotsial-demokrat-
lar partiyasining
Hamburg shahri
parlementi
deputatligiga
nomzod,
huquqshunos



Timo ULRIXS,
Berlin "Akkon"
gumanitar fanlar instituti
vitse-prezidenti, tibbiyot
fanlari doktori,
professor

NATIJALARGA QAT'IY ISHONAMIZ

Boshlanishi 1-sahifada..

O'zbekistonning olib borayotgan yoshlar siyosatini alohida ta'kidlagan bo'lar edim. Mamlakat yoshlarni qo'llab-quvvatlayotgani, nafaqat mamlakat ichida, hatto xorijda ta'lil olayotgan, mehnat faoliyatini bilan shug'ullanayotgan o'zbekistonlarning yoshlarni ham birlashtirib, ularning g'oyalari, fikr va tashabbuslari o'rganib, keng imkoniyat yaratayotgani tafsinga sazovordir. Yaqinda O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasida bo'lib o'tgan birlinchi "Vatandoshlar mintaqaviy forumi"da ishtiroy etdim va davlatning yoshlarga qaratayotgan e'tiboriga guvoh bo'ldim.

Iqlimi muhofaza qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri va O'zbekiston bu borada katta ishlarni amalga oshirayotganidan xabardorman. Hukumatning tomonidan quyosh, shamol energiyasi kabi qayta ishanadigan manbalarni rivojlantrish bo'yicha ulkan maqsadlar qo'yilgani va yirik loyihamning amalga oshirilayotganini e'tiboriga etdim.

Mamlakatda paxta yetishtirish ham iqlim muhofazasi maqsadida kamaytirilgani, ko'kalanzorlashtirish ishlarning avj oldirilgani quvonarli hol. Bu masalalar elektr toki, tabiiy gaz narxlar o'sili borayotgan bir paytda Yevropa uchun ham juda dolzarbdir. Qayta tiklanadigan energetika turlari bo'yicha faol bo'lgan yangi sheriklar bilan hamkorlikda ishlash bish uchun muhim. Kelajak uchun atrof-muhitiga zarar keltirmaydigan ijtimoiy ekologik iqtisodiyot yaratish yo'lida kuchlarimizni birlashtirish safarbar qilsak, muayyan natijalarga erishishimizga qat'iy ishonamiz.

– Ayni paytda jahon maydonida hukm surayotgan siyosiy holatni inobatga oladigan bo'sak, ikki yirik mintaqaning hamkorlikdagagi sa'y-harakatlari olamshumul ahamiyat kasb etadi. Bu har ikki tomoniga ham dolzarb masalalar bo'yicha bevosita muloqot olib borish hamda hamkorlik istiqbollarini mustaqil belgilash imkonini beradi.

Bularning barchasi davlatlar hamjamiyati darajasida muhokama qilinishi lozim bo'lgan va mazmunan kelishib olishish talab etadigan global masalalardir. Bildirilgan tashabbuslarda O'zbekistonning yetakchilik roli bi, ya'ni sog'iqlini saqlash va tibbiyot sohasidagi faol ekspertlarni quvontiridi. Chunki bu bizga O'zbekiston-Germaniya munosabatlarni yanada rivojlantrish, masalan, iqlim o'zgarishining inson salomatligiga ta'siriga oid muhim mavzularni ilgari surish, birlashtirishda ularning yechimini izlashga o'z hissamizni qo'shishtirishimizni beradi.

Iqlim o'zgarishining aholiga ko'ssatayotgan ta'sirini kuzatayapmiz. Bu global muammolarni hal etish uchun o'zaro to'g'ridan to'g'ri bevosita muloqot qilishimiz lozim. Buning uchun davlatlarimiz tomonidan siyosiy jihatdan smart-sharoitlarning yaratilishi, doimiy forumlarning tashkil etilishi hamkorligimizni yanada Jadallashtiradi. Bu esa ezuq maqsadlarimiz ro'yobga chiqishida bizga qanot qilayotgan.

Samarqand uchrashtularining yana bir ahamiyatli jihatini ta'kidlashni istardim, ya'ni "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida, Samarqand Xalqaro iqlim forumida ham barcha sohalarda ikki tomonloma emas, balki ko'p tomonloma hamkorlikni rivojlantrishga asosiy urg'u berildi. Shu nuqtayi nazardon ham, bu olyi darajadagi uchrashtularning biz uchun ahamiyati katta, bunday siyosiy kelishuvlar global muammolarni ularning yechimi ustida birlashtirishda ishlashtirish uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratadi.

Men hamisha Samarqandga katta ishtiyoq va cho'ng bir sevgi bilan boraman. Bu qadimiy kentni bekorga "ona yer mo'jizasi" yoki "sayqali ro'yim zamin" deyishmaydi. Shahar me'moriy yodgorliklari kishini hayratga soladi, sirli moziyga qaytaradi.

Sammitni ochib bergan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi xalqaro hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etildi. Prezidentimiz o'z nutqida barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan masalalarga alohida to'xtalib o'tarkan, ularning samarali yechimlari bu – hamkorlik, o'zaro muloqot, tajriba almashtish, diplomatiyani kuchaytirish ekanini ta'kidladi.

– Iqlim inqirozining salbiy oqibatlarini – o'mron yong'inalri va cho'llanish ko'laming qurilishi. Muzliklarning qisqarayotgani, suv resurslari taqchiligi kuchayib borayotgani, qo'riqlanadigan huddularni yaratishda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro shartnomalar, dengiz qurg'oqchiligi bilan bog'liq masalalar va boshqa muammolarni muhokama qildilar. Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishi, ifloslanish va biologik xilma-xillikni yo'qotish xavfi ostida bo'lgan noyob ekotizimlar hududi ekanligi qayta-qayta ta'kidlandi.

Bugungi kunda suv ta'minoti uchun zarur bo'lgan muzliklarning kamayishi qishloq xo'jaligi va elektr energiyasi ishlab chiqarishga tahidid solmoqda. Xalqaro va mintaqaviy tashabbuslar, jumladan, Samarqanddagi CMS COP-14 va CITES COP-20, Dushanbedagi Muzliklar sammiti, Ashkobodagi Iqlim konferensiysi Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi kontekstida suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish, "Markaziy Osiyo uch karra global inqirozga yuz tutmoqda", "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish yo'llari" mavzulari atroficha muhofazalarga sabab bo'ldi.

Samarqand iqlim konferensiysi ishtiroychilari fikriga ko'ta, sayyoramizning uch o'lchovli inqirozini hal etishining asosiy strategiyasi transchegaraviy muhofazalarga qilinadigan hududlar va tabiatini keltirib chiqaradi.

asrash bo'yicha mintaqaviy dasturlarni yaratishdan iborat. Biologik xilma-xillikni saqlash, ifloslanish darajasini pasaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi, tirkilchilik vositalarini himoya qiladi va iqtisodiy barqarorligi oshiradi.

Ko'na Samarqandda uch kun davom etgan xalqaro sammit ahli dunyo e'tiborini o'ziga tortdi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. "ITAR-TASS" va "RIA-Novosti" (Rossiya), "Farsnews" (Eron Islom Respublikasi), "Kursiv" va "Kazinform" (Qozog'iston), "Jumhuriyat" gazetasi (Tojikiston), TRT telekanali (Turkiya), BBC (Buyuk Britaniya) va bir qator eng nufuzli axborot agentliklar muxbirlari jarayoni muntazam yoritish bordilar.

Bundan tashqari, jurnalistlar uchun alohida matbuot anjunmlari tashkil etilib, sammitga doxil barcha ma'lumotlar to'lgiliga



INNOVATION YONDASHUV ZARURATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Tadqiqotimda mehnat resurslarini boshqarishga doir eng zamonaviy strategiyalar tahlili, inson resurslariga nisbatan gumanistik yondashuv muhim o'rinn tutadi. Negaki, globalashuv va keskin raqobat sharoitida ayan shu yondashuv raqobatbardosh korxonalarining shakllanishiga va har bir xodimning o'z qadrini his qilishiga imkon beradi.

Bu borada Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va "O'zbekimyosanoat" AJning xalqaro dasturlarida qatnashganim xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirishga yordam berdi. Mehnat resurslarini boshqarishda yangi standartlarni shakllantirish hamda strategik, taktik va operativ mexanizmlarni yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilish tadqiqotimning asosiy maqsadlaridan birlidir.

- Demak, tadqiqotlaringiz mehnat salohiyatini innovatsion bosqichga olib chiqishga yo'naltirilgan. Bu siz uchun qanchalik muhim?

– Juda muhim. Chunki zamona viy iqtisodiyotda innovatsiyalar o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Biroq mehnat resurslari samarali boshqarilmasa, eng ilg'or texnologiyalar ham amaliyotda samara bermay, faqat g'oyalilar darajasida qolib ketaveradi. Aynan shuning uchun ham inson resurslarini moslashtirish, ish unumdarligini oshirish va ularni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchiga aylantirish borasida izlanishlar olib boraman. Bu strategik ahamiyatga ega tarmoqlar kimyo sanoati uchun ayniqa ahamiyati.

- Nega aynan kimyo sanoati uchun?

– Chunki kimyo sanoati nafaqat mustaqil tarmoq sifatida, balki boshqa ko'plab sanoat sohalari uchun ham asosiy xomashyo va texnologiyalar manbayi sanaladi. U sanoatlashuv jarayonlarini tezlashtiradi, eksport salohiyatini oshiradi, yangi ish o'rinnari yaratilishiga sabab bo'ladi va eng muhimni, ilm-fan rivojiga turki beradi.

Kimyo sanoati YAIMga qo'shayotgan hissasi orqali mamlakat iqtisodiy o'sishida muhim rol o'yinaydi. Ushbu soha doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham ichki, ham tashqi bozorda talabdir.

Bundan tashqari, kimyo sanoati boshqa tarmoqlarga asos, ya'ni, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, yengil sanoat, qurilish, neft-gaz, oziq-ovqat va boshqa minglab tarmoqlar

zamonaviy filtrlash, chiqindilarini qayta ishish, biodegradatsiya texnologiyalari yordamida ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Hozir bu yo'naliish yurtimizda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, uni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun ulkan imkoniyatlar bor. Biroq sohada kadrlar boshqaruvda qator taqchillik hamda mala-kali mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi. Bu ahvolda barqaror o'sish haqida faqat orzu qilish mumkin. Shuning uchun mehnat resurslarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi va men buni tadqiqotimning asosiy maqsadi sitafida belgilab oлганман.

- Kimyo sanoatini samarali boshqarish nima uchun bu darajada muhim? Nazarimizda, bu sohadagi ishlar bir maromda ketayotgandek...

– Bu soha xavf darajasi yuqori va murakkab texnologiyalarga asoslangan. Qolaversa, ko'p sarmoya talab etadigan soha. Tavakkal qo'yilgan biringa qadam yoki boshqaruvdagagi kichik bir xato ulkan va yarangorachiliklarga yoxud misliz zararlarga olib kelishi mumkin. Uning samarali boshqaruvi xavfsizlik, inson salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ham shart.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida qat'iy nazorat, mahsulot sifatini ta'minlash va xalqaro standartlarga moslashish eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Investorlar ana shunday tizimlashgan sohalarga ishoshishadi va ko'proq sarmoya kiritishga moyil bo'lishadi.

- Ilmiy tadqiqotlaringiz qachondan boshlangan?

– Olyi ta'limi tamomlagandan so'ng xalqaro iqtisodiyot va tadbirkorlik fanlaridan dars berishni boshladim. Bu esa menga ilmiy izlanishlarga jiddiy kirishish imkonini yaratdi. Ko'p o'tmay, kimyo sohasidagi mehnat resurslari masalasi menda katta qiziqish uyg'otdi.

- Izlanishlar jarayonida qanday xulosalarga keldingiz?

– Bida kimyo sanoati rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar bor. Fosforit, kaliy tuzlari, oltinugurt, gaz va neft kabi kimyo sanoati uchun muhim xomashyolar bisyor. Organik kimyoiy moddalar ishlab chiqarishda asosiy manba bo'lgan tabiiy gazga ham, boshqa tabiiy resurslari zaxirasiga ham emagiz. Bundan tashqari, strategik joylashuvimiz qo'shni davlatlar va yirik bozorlarga chiqish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi, qurilish va yengil sanoat uchun mahsulotlar ishlab chiqarish esa eksportni rivojlanitiradi.



Ilovchi oliy o'quv yurtlarimiz bor. Ilmiy-tadqiqot institutlari sabab ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi rivojlanmoqda. Davlat tomonidan kimyo sanoatini rivojlantrishga oid strategiyalar ishlab chiqilgan. Xorijiy va mahalliy sarmoyalar jalb qilinib, "Uzbekistan GTL", "Navoiyazot" singari yangi korxonalar ochilyapti. Bu investitsiya va davlat qo'llab-quvvatlovidan darak.

Biroq kadrlar rivojining aniq tizimiz hisqiqiy innovatsion iqtisodiyotni qurish mushkul, ayniqa, kimyo sohasida. Avtomatizatsiya va raqamli texnologiyalar yangi malakalarni talab qiladi. Biznes, ta'lim va mutaxassislarini qayta tayyarlashga katta e'tibor qaratish zarur. Ilm-fan va ishlab chiqarish o'tasidagi integratsiya esa juda muhim.

- O'zbekistonda mehnat resurslarini rivojlantrishda qanday muammolar bor deb hisoblaysiz?

– Eng asosiy muammo – mehnat bozori va ta'lim tizimi o'tasidagi nomuviqqlik. Bitiruvchilar ko'p holda mehnat bozorining real ehtiyojlariga to'liq mos kelmaydi. Ayrim sohalarda mutaxassislar keradigan ko'p, ayrimlarida esa (IT, muhandislik, qurilish, agrar va boshqa) malakali kadrlar tanqis.

Zamonaviy iqtisodiyot raqamli salohiyat talab qiladi, ammo aholining katta qismi bu borada ko'nikmaga ega emas. Ayniqa, katta yoshdagisi kishilar. Bugun sun'iy intellekt va avtomatizatsiya mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda. Bida esa kadrlarning texnologik o'zgarishlarga moslashuvi sust. Ta'lim tizimi ko'p hollarda biznes ehtiyojlaridan orqa da golgan. Yana bir muammo shuki, innovatsion sohalarda yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi.

- Bu muammolarni qanday hal qilish mumkin?

– Eng avvalo, ta'lim tizimi va bozor ehtiyojlarini o'tasida uyg'unlikka erishish kerak. Universitetlar, ishlab chiqaruvchilar va davlat organlari o'tasida samarali hamkorlikni ta'minlash – mehnat resurslarini rivojlantrishda asosiy omil shu.

O'quv dasturlarini bozor talabiga moslashtirib, STEM – fan, texnologiya, muhandislik, matematika sohalariga e'tiborni kuchaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, kasb-hunar ta'limga investitsiyalar kiritish va amaliy mash'ulotlar orqali tajriba berish juda muhim. "Dual education" kabi modellar bu yo'da yaxshi samara beradi.

Shuningdek, universitetlar qoshi da ilmiy-teknik startaplar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantrish va davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash muharror choralar sirasiga kiradi.

Yangi O'zbekistonda bo'yonalishdagi islohotlar ijobji harakatlardan darak bermoqda: yosh mutaxassislar shakllannoqda, startaplar uchun grant va subsidiyalar ajratilayti; texnoparklar tashkil etilayti; investorlar uchun quylay shart-sharoitlar yaratilayti. Bularning barchasi mehnat resurslarini zamonaviylashtirish, raqamlashtirish va innovatsion siyosatni uyg'un ravishda amalga oshirishga xizmat qiladi.

- Mazmunli suhbat uchun rahmat!

– Suhbat o'zim uchun ham foydali bo'ldi. E'tiboringizdan minnatdormon!

Abdulhamid MUXTOROV
suhbatlashdi.



Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanih ish tutadigan bo'l, loaql ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi bo'ima, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan.

Mahmud ZAMAHSHARI



“

Texnoparklar, erkin iqtisodiy zonalar, maxsus kimyo sanoati hududlari, yangi zavod va fabrikalarining barpo etilishi bu imkoniyatlarni amaliy isbotidir. Navoiy va Farg'onaviyoylatlaridagi sanoat zonalari kimyo sanoati uchun allaqachon strategik ahamiyatga ega bo'lishga ulgurgan.

Inson kapitali va ilmiy salohiyat borasida ham imkoniyatlar yomon emas. Kimyo va biotexnologiyalar bo'yicha malakali kadrlar tayyor-

shun muharror choralar sirasiga kiradi.

Yangi O'zbekistonda bo'yonalishdagi islohotlar ijobji harakatlardan darak bermoqda: yosh mutaxassislar shakllannoqda, startaplar uchun grant va subsidiyalar ajratilayti; texnoparklar tashkil etilayti; investorlar uchun quylay shart-sharoitlar yaratilayti. Bularning barchasi mehnat resurslarini zamonaviylashtirish, raqamlashtirish va innovatsion siyosatni uyg'un ravishda amalga oshirishga xizmat qiladi.

- Mazmunli suhbat uchun rahmat!

– Suhbat o'zim uchun ham foydali bo'ldi. E'tiboringizdan minnatdormon!

Abdulhamid MUXTOROV
suhbatlashdi.

“

ONAJONIM - TABIAT



KARVON YO'LIDAGI "JAYRON"

yoxud sayyoohlarga bag'rini ochayotgan parvarishxona

YO'L KO'RSATUVCHI MAYOQ

Buyuk Ipak yo'li karvonlari qadimda Xitoydan Yevropaga Buxoro orqali o'tgan. Biz bugun hikoya qilmoqchi bo'lgan "Jayron" parvarishxonasi hududi ham ana shu yo'l yoqasida. Bu yerdan XIII-XV asrlarga oid ko'plab sopol idishlar topilgan ushbu manzil uzoq yillar davomim G'arb va Sharq o'tasida madaniy ko'rik vazifasini o'taganidan dalolat beradi. Parvarishxonadan 20 kilometr uzoqlidagi qadimiy sardoba saqlanib qolgan. Usti gumbazli bu hovuz yomg'ir, qor suvlarini uzoq muddat toza saqlagan. Bu tarixiy inshoot o'z vaqtida yo'l ko'rsatuvchi mayoq vazifasini ham o'tagan. Karvonlar o'z yo'naliishini ana shu sardobalar orqali aniqlab olishgan tarixiy manbalardan ma'lum.

"QIZIL KITOB" VA "JAYRON"

O'rta Osiyoning eng katta uchta cho'lidan biri Qizilqumdir. U Amudaryo va Sirdaryo oralg'ida joylashgan bo'lib, katta qismini yarim sobit qumlardan hosil bo'lgan or'kachlar egalagan. Uning eng baland nuqtalari – Bo'kantog' va Quljuqtog'. Sho'rxok botqoq va pasttekislardan iborat eng churuk nuqtalari esa Oyoqog'itma, Mingbulqo sanaladi. Ushbu cho'l O'zbekistonning katta hududini egallaganiga qaramay, uning ma'lum bir qismidagina "Qizilqum" qo'riqxonasi va Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" parvarishxonasi tegishli 5145 hektardan iborat yopiq hududga qo'yib yuborilgan. Ular ayni paytda tabiat qo'yinda boshqa turlar qatorini emin-erkin ko'paymoqda.


tuyaqushlar hayoti bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'rta Osiyon cho'l toshbaqasi esa tobora kamayib borayotgan endemik tur hisoblanadi. "Qizil kitob"ga kiritilgan mazkur tur Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" parvarishxonasida muhofaza ostiga olingan. Kunlari isiy boshlasa, toshbaqalar qishki uyqudan uyg'onib, faol yashash tarziga o'tadi.

2021-yilning may oyida Qashqadaryo viloyati hudуди tabiiy muhitdan noqonuniga yig'ib olingan 700 ga yaqin toshbaqa qonunbuzlarlardan olib qo'yilgan edi. Toshbaqalar xavfisiz saqlanishi va ko'payishi uchun Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" parvarishxonasiga tegishli 5145 hektardan iborat yopiq hududga qo'yib yuborilgan. Ular ayni paytda tabiat qo'yinda boshqa turlar qatorini emin-erkin ko'paymoqda.

XALQARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

"Jayron" parvarishxonasi hududida yashaydigan umurqali hayvonlarning ellikkiga yaqin turi va umurtqasiz jonivorlarning olti turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" va Xalqaro "Qizil ro'yxat"ga kiritilgan. Asosiy hududda jayron, qulon va prjeval otidan tashqari, kaltakesak, bo'zechkemar, ilonlarning bir necha turi, cho'l toshbaqasi, tulki, to'qay hamda qamish mushugi va boshqa hayvonlar ko'paytiladi. Bu yerda 250 dan ortiq qush turini kuzatish mumkin. Ularning 35 turi noyob va O'zbekiston "Qizil kitob"ga hamda xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan. Parvarishxonada katta qarqara, saqoqush, o'rdaklarning bir necha o'n turi, qora tasqara, cho'l burqutini ham uchratish mumkin.



Hududda sutmizuvchilarning 36 turi qayd etilgan. Bu O'zbekistonda uchraydigan sutmizuvchilar umumi yilning 33 foizi tashkil qiladi.

Shuningdek, ushbu manzilda saksovulzorlar, to'qaylar, tuzli botqoq va taqir yerlarda unuvchi o'simlik navlarni ham ko'rish mumkin. Parvarishxonada 46 oila, 182 turkumga mansub, 267 turdagi o'simliklar o'sadi. "Jayron" florasiga tarkibida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ga kiritilgan vvedenskiy oligoxetasini, sug'd karragi, joyqosin lola turlari uchraydi.

Buxorodagi Jayron ko'paytirish parvarishxonasi dunyoda ushbu turni ko'paytirishga ixtisoslashtirgan yagona markaz hisoblanadi. Mazkur parvarishxona bilan Rossiya, Fransiya, AQSh, Germaniya singari davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari o'tasida hamkorlik yo'lg'a qo'yilgan. "Jayron"da olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining aksariyati jahon amaliyotida kuzatilmagan.

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda biologik xilma-xillikni saqlashga katta hissa qo'shayotgan "Jayron"da ilmiy-amaliy tadqiqotlar barqaror rivojlanmoqda.

Orol dengizi mintaqasidagi ekologik vaziyatning o'zgarishini hisobga olib, cho'l biosenozlarining tuzilishini tiklash dasturlari ishlab chiqilmoqda va cho'l'anishga qarshi kurashning o'ziga xos usullari taklif qilinmoqda. Chunki O'zbekistonda bioximaxillikni saqlash va yovvoyi hayvonlar populyatsiyasining barqaror holatini ta'minlash sohasidagi o'zgarishlar juda muhimdir.

Obid QO'L DOSH



Boshlanishi 1-sahifada.

Til va adabiyot millatni tarbiyalovchi, insonni sharafllovchi buyuk kuch. Hazrat Navoiy ham tilning faqat insongagina ato etilgan "guhari sharif", ya'ni so'zning qudratli qul ekanini urg'ulaydi. Millat tarixi, insoniyat tarixi – bu til tarixi demakdir. Biror bir millat tarixi shahniq qolishi undagi til tarraqqiyoti, adabiyot takomiliga bog'liq.

Milli uyg'onish davri adabiyoti namoyandalarini ham millat ravnaqini bevosita til va adabiyot bilan bog'laydi. XX asr boshlarida jadidlar xuddi Navoiy singari til masalasini, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy sathda idrok etadi. Ya'ni, ular boshsha til unsurlaridan xoli, o'z lug'at boyligi va imkoniyatlarga tayangan sof milliy lison uchun kurashga kiradilar. Navoiy asarlari orqali turkiy til boyligi, jozibasi, qadratini dunyoga keng yoygan bo'sha, jadid ma'rifatparvarlari uni o'z imkoniyatlarga negizida taraqqiy ettirmoqni ko'zlaydi. XX asr boshlarida G'ozi Olim Yunusov, Elbek, Fitrat kabi ijodkorlarimiz o'qimliklari, folklor va adabiyot bilan bog'lagani bejiz emas.

Inson milliylik, o'zligidan uzoqlashgani sayin tafakkurida ham bir xillikka moyilik ortib boradi va bu holat-jarayon o'z-o'zidan uning axloqi, tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. Deylik, yapon maktablarda o'quchilarga urf-odat va an'analar aynan adabiyot darslarida singdirib boriladi. Bugun biz ham eng katta e'tiborni adabiyotga qaratishimiz kerak, nazarmida. Adabiyot aymirlar aytmochiq asarlari jamlanmasi yo axloqshunoslik emas, aksincha, u tom ma'noda millat ruhini tarbiyalovchi fan.

- To'g'ri aytasiz, ustoz. Shu ma'noda aytish mumkinki, bolalar tarbiyasida adabiyotning, so'zning ahamiyati katta...

– Va aynan ona tilidagi badiiy so'z ahamiyatining! Mana bu holda bolalar tafakkuri tamomila boshqacha shakllanadi. Bugun global jamiyatida yuz berayotgan ishlarga sinchkov razm solsak, e'tibor ko'proq inson ichkarisiga, botiniga qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Bunda adabiyot ta'siri, o'rni va ahamiyati yanada muhim. XX asr jahon falsafiy tafakkuri o'sishiga katta hissa qo'shgan buyuk faylasuflardan bira Nitsshe o'z asarlari orqali nemis tilini bir pog'ona yuqori ko'targani aytildi. Darhaqiqat, biror bir tilda yaratilgan chinakam badiiy asar, avvalo, millat tili

MULOHAZA

Ro'zayi ramazon kunlarida oynayi jahon (ayniqa, ijtimoiy tarmoqlar) saxovat tadbirlari targ'iboti bilan to'lib toshdi. Xalqimizda qadimdan Navro'z va boshqa bayramlarda, ayniqa, ro'za oyida ehtiyojmand oilar holidan xabar olish, fitr va zakotlarini kamdaromad oilalarga berish an'anasi mavjud. So'nggi yillarda bu an'ana davlat siyosati o'laroq tizimli tashkil qilinadigan tadbirlarga aylandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan "Temir daftari" va boshqa shunga o'xshagan ro'yxtarlardagi oilalarga muntazam moddiy yordamdan tashqari tadbirkorlar va sarmoyador insonlarni tonidan xayr-u saxovatlar ulashilayotdi.

Bu yaxshi an'ana – yaxshi amal. Ammo...

Ramazon kunlarida "Temir daftari" da turadigan, boquchisini yo'qtgan xonadonga mahalla imomi bosqliq mas'ullar bir qop un, yog', qand-qurs keltirishganida guvoh sifatida biz qo'shnilarini chaqirishdi. O'sha berilmish ne'matlar solingen qutini oilaning qizi yoniga qo'yib, biz guvohlarni ham safga tizit surtaga olishgani g'alat ish bo'ldi. Ajablanganimi ko'rib, mas'ullardan bira "Hokimlikka ma'lumot sifatida fotosurat yuborishimiz kerak", dedi...

Oynayi jahonda shunga o'xshash tadbirdan olingen lavhaga ko'zim tushdi. Nogironlik aravachisida o'tg'an o'rta

...Amakimizning nevarasi turmushidan avrilib, ona uyiga qaytib keldi va "ona qorniga sig'gan" og'ayinlari uni ota uyiga sig'ishtirmadi. Otasidan meros

...Amakimizning nevarasi turmushidan avrilib, ona uyiga qaytib keldi va "ona qorniga sig'gan" og'ayinlari uni ota uyiga sig'ishtirmadi. Otasidan meros

ADAB YOTLARDAN ADABIYOT QUTQARADI

Suhbatdoshimiz – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor ESHONQUL

va tafakkurini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ham qimmatlidir.

– *Folklorshunos olim sifatida sohaning yutuqlari, kamchiliklari va siz xalqimiz chuoq bilishi kerak deb hisoblaydigan jihatlar xususida ham to'xtalsangiz.*

– So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyatga, folklor san'atiga juda katta e'tibor berilyapti. Xalqaro baxshichilik festivallari, Termizda, Nukus va Sirdaryoda bo'lib o'tdi. Bu soha rivoji uchun ham, baxshilarimiz uchun ham juda katta vogelik bo'ldi. Chunki bu yerga kelayotgan ijrochi – baxshi, oqin, jirovlar turli millat, elatga xos madaniyat, san'at, ijo usuli va repertuarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishapti.

Sir emas, baxshichilikka qiziqish ko'pgina o'lkalarda hamingadar. Shu bois ham ular buni jonli holatda tasavvur qila olmaydi. Yurtimiza kelib, dostonlarni jonli eshitish imkon ular uchun katta yangilik hisoblanadi. Bir paytlar amerikalik olimlar Melman Perri va Albert Lord Yevropaga kelib, so'niq borayotgan baxshi ijrosi bilan tanishib, juda katta kashfiyot qilishgan. Ular Gomerling shoir, ya'ni individual ijodkor emas, xalq dostonlari ijrochisi, baxshi bo'lganini fanda isbotlab berishgan. Keyning muhim qadam – jonli ijroja xos bo'lgan epik formula, ya'hi dostonlarda takrorlari keluvchi misralar nazariyasiga asos solishgani bo'ldi. Ingliz olimlari ushbu tadqiqlari orqali butun dunyoda dovrug cozonishdi. Lordning "Baxshi" kitobi esa shov-shuv bo'lib ketdi...

Xalqaro baxshichilik festivali arafasida "Alpomish" dostonining bir necha variantini O'zbekiston xalq baxshilari Abdunazar Poyonov, Qahhor Rahimov, Boyqo'chgor Ahmedov, Shodmon Egamberdiyev ijrosida yozib oldik. Qolaversa, "O'zbek xalq ijodiy yodgorliklari" nashri qilinyapti. Bugungi kungacha qirqa jildi bosmodan chiqdi. Birinchi navbatda, qadimdan jonli ijroda kuylab kelinayotgan doston namunalari, ertak, xalq qo'shiqlari, maqolmatal, afsona, rivoyatlar ulardan joy oldi. Bu esa o'zbek xalq og'zaki ijodi niroyatda boy va rang-barang ekanidan dalolat.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, bugungi kunda xalqaro YUNESKO tashkiloti insoniyatning nomadaniy va madaniy merosiga alohida urg'uberiyapti. Ular merosni katta besh guruhga bo'lib o'rganishadi. Dostonlar ana shu beshtalikning birinchingisiga kiradi. Chunki doston ijrochiligi yer yuzinzing hamma joyida ham bizdagide tabiyyi holda saqlanib molgaman. Shu tuyafli dostonlarimizga dunyo olimlari yuksak qiziqish bildirib, ularni o'z tillariga tarjima qilishyapti. Birgina "Alpomish"ning o'zi yapon, koreys, turk va boshqa tillarda, shuningdek, Amerika, Germaniya va Rossiyada nashr qilindi. Germaniyada Karl Rayx ismli professor olim bor. U dunyoga turkiy xalqlar eposi tadqiqotchisi sifatida tanilgan. Olimning ham o'rganayotgan mavzusi aynan o'zbek dostonlari va baxshi ijrochiligi sanaladi.

– *Shuncha sharoit mavjudligiga qaramay, bu noboy merosni nafaqat yoshlar, balki kattallar ham yetarli darajada o'rganmayotgan...*

– Muammo shunda. Ilk navbatda baxshilarimizdan kuylayotgan dostonlarni jonli ijroda ko'proq yozib olishimiz zarur. Afsuski, bu jarayon sust. E'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan ikkinchi masala, ilmiy tadqiqotlarni keng olib borish, kuchaytirishdir.

muzej ham tarqatilib, oliy ta'llim muassasalariga qo'shib yuborilgandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev sa'y-harakatlari bilan Fanlar akademiyasi butunlay boshqatdan tashkil etildi, ta'bir joiz bo'lsa, yangi hayotini boshladi.

Davlat adabiyot muzeyi boshqa muzeylardan farqli, bir paytning o'zida ham muzej, ham ilmiy muassasa sifatida faoliyat yuritadi. Bu yerda nodir qo'lyozma va toshbosmalar bo'limiz

hay'atida xorijlik ko'plab tanqli olimlar bor. Unda tilshunoslik, folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik va dunyo adabiyotiga doir dolzarb mavzudagi maqolalar berib boriladi.

Bu yil muzeylimizning yangi binosi tamomila zamonaviy shaklda, xorij arxitektorlari loyihasi asosida qad rostlayapti. Muzeyning yangi ko'rinishda dunyo nazarida turadigan madaniy maqolalaridir.

– *Yugorida adabiyotni millat ruhini tarbiyalovchi fan, dedingiz. Shoir "Nadir holing bu fandan tashqarida", deganidek ba'zan yon-verimizda milliy qadriyatlar, urfatotlarimizga bepisand kishilarni uchratamiz. Ularni bu fan ichkarisiga olib kirishda nimalar qilmoq kerak?*

– Birinchiligi qiladigan ishimiz ulami, ayniqsa farzandlarimizni ijtimoiy tarmoqlardan uzoqroq tutish lozim. Ilgari har bir xonadonning o'z tarbiyaligidan, o'ziga yarasha tutumlar bo'ldi. Yoshlar mana shu odatlar, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topardi. Deylik, dasturxon boshida o'tirganda, kattalarning kichikka, kichiklarning kattalarga munosabati barchasi tarbiyaga, ibratga yo'naltilirgan. Bu endi shunchaki pand-nasihat emas, tarbiyaning so'z, adabiyot kuchi bilan olib borish edi, desak yangilish bo'lmaydi.

Hozirda faqat bizda emas, butun dunyoda ma'naviyatga xurujlar ortib bormoqdak, aksariyati ijtimoiy tarmoq qo'li bilan amalga oshirilayapti. Bu ko'rinmas og'u ta'sirida axloqan aynishlar avj olyapti. Ayni darddan xalos bo'lishning birdan bir yo'l adabiyot, milliy an'analardir.

Onalarimiz aytgan alla, baxshilarimiz kuylagan doston, oilada kattalar ovoz chigirlab o'qib bergan kitoblar – barchasi tarbiya. Hozir alla aytilyaptimi? Unutib qo'yidik. Kimdir baland ohangda kitob o'qib beryaptimi? Eslolmaymiz. Aslida, millat ruhini tarbiyalashning zimmamizda turgan bura qirrasi mana shular. Taassufki, biz bugun bolalar qo'liga kitob emas, telefon berishni ma'qul ko'ramiz. Oqibatda ular tarbiyasida nuqsonlar yaralmoqda. Farzandlarning tarbiyachisi biz emas, ijtimoiy tarmoqlar bo'lib qolyapti.

Shaxsan menga taskin, quvonch beradigan – bugun yurtimizda kitobxonlikka katta e'tibor qaratilayotir. Bunday sa'y-harakatlardan kutgan hosilni berishini istasak, farzandlarimiz tarbiyasida mas'ullikni tarmoqlardan o'z qolimizga olishimiz shart. Siz o'qisangiz, farzandningiz ham kitobga talipnadi. Bordi-yu telefon bilan mashq'ul ekansiz, bola ham sizdan o'tib qayga borardi? O'zimiz o'rnak bo'laylik. Qisqasi, ta'lim-tarbiya avvali oilda. Shunday ekan, o'zimiz barobarida oilani adabiyotga, kitobga yaqinlatishimiz kerak. Zotan, adabiyotning jamiyatni adab yotlardan tozalaydi, poklaydi.

– *Jabbor aka, foydali va samimiy suhbat uchun Sizga minnatdorlik bildiramiz.*

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.



Folklor – o'zak, ildiz. Adabiyot shu ildizdan suv ichadi. Ana shunday buyuk merosni xalqaro miqyosda bor bo'yicha ko'rsatish, yanada ko'proq targ'ib qilish ehtiyoji mavjud. Xabarining bor, mamlakatimiz rahbari Bishkekda bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari sammitida tarixiy ahamiyatiga ega muhim taklifini, ya'ni tashkilotga a'zo davlatlar tilida turkiy ellarning folklor namunalarini ko'p jidda nashr etish fikrini o'rta tashladi. Buni nafaqat o'zbek, balki turkiy xalqlar folkloriga bo'lgan ulkan e'tibor, e'tirof deb ayishimiz mumkin. Chunki turkiy ellar folklor namunalarini shu paytgacha yaxlit nashr etilmagan. Ushbu ezu tashabbus turkiy ellarning tili, tarixi, madaniyati va badiiy so'z san'ati namunalarining ildizi bir ekanini urg'ulaydi. O'yaymanki, bu turkiy xalqlar tarixidagi juda katta voqelegi bo'ladidi.

– *Mana shunday ulkan voqelegiklarda bugun Siz rahbarlik qilayotgan muzey faoliyati, hissasi qanday? Shular haqida ham fikrlashsak...*

– Fanlar akademiyasi tizimida uchta muzej bor: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi.


Eslayman, Fanlar akademiyasidagi ko'p-pinga ilmiy muassasalar, jumladan, bizning

bor. Shuningdek, Alisher Navoiy, Zahidaddin Muhammad Bobur singari ulug' ajodolarimiz qo'lyozmalari saqlanadi. Asosiy vazifamiz ana shunday nodir merosni asrab-avaylash va ularni ilmiy tadqiq etishdir. Muzej ilmiy xodimlarining tadqiqotlari faqat yurtimizda emas, xorida – Yaponiya, Eron, Ozarbayjon, Turkiyada ham amalga oshirib kelinmoqda.

Adabiyot muzeining uzoq yillarga mo'ljallangan rejasiga mavjud. Undagi asosiy e'tibor nodir qo'lyozmalar hamda shoir ijodkorlar arxivini fondini tadqiq etishga qaratilgan. Shoir ijodkorlar fondi – noyob arxiv. Bunaqasi boshlaridan to yaqin yillargacha yashab ijod etgan shoir, adabiyotshunos olimlarning qo'lyozmalari, hujjalari saqlanadi. Ular o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

O'tgan yili muzeining ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shahnoza Nazarovda tomonidan Cho'lpionning shu paytgacha noma'lum bo'lgan "Zamona xotini" qo'lyozmasi bizning muzeyda topilib, nashr qilindi. Bu fond so'nggi yillarda Tohir Malik, Rauf Parfi, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov kabi shoir va akademik olimlarimizning ijod arxivini bilan boyidi.

Shuningdek, muzeyda "Adabiy meros" nomli ilmiy jurnal chop etiladi. Nashr tahrir



Tagini surishtisa, o'sha bloger bu saxovat ishlarni o'z cho'ntagidan qilayotganiyo'q. Blogida "Kambag'allarga yordam qo'lini cho'zaylik!" degan shior ostida aksiyalari yushtirib, pul to'plab, shundan bir qismini tarqatmoqda, xolos. Qolaversi...

Bu birodarimiz "O'ng qo'ling berganni chap qo'ling ko'rmasin", deyilmish otso'zimizdan mutlaqo bexabar. Unga qo'yib bersa, o'sha "o'ng qo'lini" butun dunyoga mashhur qilsa – "layk" degan maqoldan o'tkazib nirmayam derdi.

Nimsa deymiz? "Yaxshilik qil – daryoga ot! Bilsa baliq, bilmasa Xoliq", degan maqoldan o'tkazib nirmayam derdi.

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

O'NG QO'LING BERGANNI... BUTUN DUNYO KO'RSIN(MI?)

yashar kishi homiyalar keltirgan bir qop un va boshqa yeguliklar yonida xomush qiyofada o'tribdi. Yonida qizalog'i kelganlar va ularning videoga olishlariga qiziqib qarayapti...

Mayli, xayr-u saxovat qilinibdi, falon narsalar berilibdi, ammo shuni tasvirga olib, butun yurtga ko'z-ko'z qilish shartmi? Yana so'zamol muxbir "Kambag'al, nogiron kishi holidan xabar olindi, falon narsalar berildi. Fuqaroring bu e'tibordan boshi ko'kka yetdi, minnatorlik bildirishga tili ojiz..." kabi ko'tarinki so'zlarini to'qitishdek "say-rayapti".

"E, birodar, taqdir taqqozisi bilan nogironlik aravachasiga mixlanqan qolgan bandani shu ahvolda ko'rsatish shartmi? Ertaga tanishlari, qo'ni-qo'shnilaril oldida xijolat tortmaydimi, uyatdan boshi egil-maydimi?" deydigan odam yo'q.

Shunga o'xshagan tadbirlarni mahalliy hodimliklarning rasmiy saytlari ham go'yo "olamshumul voqe'a" tarzida yoritishlarini aytayting!

...Amakimizning nevarasi turmushidan avrilib, ona uyiga qaytib keldi va "ona qorniga sig'gan" og'ayinlari uni ota uyiga sig'ishtirmadi. Otasidan meros

qolgan yer maydonida o'zi va bolalariga boshpan



KONFERENSIYA



SOHIBQIRONNING HARBIY MAHORATI VA MAHOBATI

Buguk sarkarda, ma'rifat va madaniyat homiysi, sohibqiron Amir Temur bobomiz o'zining yuksak zakovati, adolatpeshaligi bilan dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan. U qoldirg'on boy harbiy va ma'nnaviy meros hamisha dunyo afkor ahlining diqqat-e'tiborida bo'lgan va hanuz tadqiqotchilar Amir Temur va temuriylar davrini o'rganishga ehtiyoj sezyapti.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida "Amir Temur va temuriylar davri harbiy san'ati: lashkarning ma'nnaviy-axloqiy va jangovar tayyorgarligi masalalari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda bir qator xorijiy davlatlarning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan harbiy attachelari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, olyi ta'lim muassasalar, Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilar, harbiy tarix bo'yicha yetuk, yuksak intizom va mas'uliyat hissiga ega, milliy qadriyatlar sodiq, vatan ravnaqi uchun jangi-jadallarga tayyor bo'lgan yangi avlod harbiy xizmatchilarini tarbiyalash, temuriylar merosini harbiy ta'lim va tarbiya tizimining ajaralmas qismiga aylantirish muhim vazifa qilib belgilangani ta'kidlandi.

Davlatimiz madhiyasi bilan boshlangan mazkur tadbirni O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-major Shuhur Xolmammedov ochib berdi hamda anjumanning maqsad va vazifalari xususida so'z yuridi. Shuningdek, O'zbekiston Qurolli Kuchlarida g'oyaviy jihatdan yetuk, yuksak intizom va mas'uliyat hissiga ega, milliy qadriyatlar sodiq, vatan ravnaqi uchun jangi-jadallarga tayyor bo'lgan yangi avlod harbiy xizmatchilarini tarbiyalash, temuriylar merosini harbiy ta'lim va tarbiya tizimining ajaralmas qismiga aylantirish muhim vazifa qilib belgilangani ta'kidlandi.

Tadbirda O'zR FA Tarix instituti direktori, akademik Azamat Zizo, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi, professor Saidxon Saidolimov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, professor Otabek Hasanov va boshqa soha mutaxassislar chiqishida ham sohibqironning harbiy va ma'rifiy merosini tadqiq va tarib' etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Konferensiya doirasida "Amir Temuring jang strategiyasi", "Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy, madaniy va harbiy-siyosiy vaziyat", "Amir Temuring qal'alarni egallash mahorati" kabi o'nlab mavzular muhokama qilindi. Ma'ruzachilar temuriylar davrida shakllangan harbiy san'at va strategiya hamda davlatchilik asoslarini chuqr tahvil qilish, ularni zamonaviy harbiy ta'lim, tarbiya va tayyorgarlik jarayonlariga integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganishga alohida urg'u berishdi.

Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambl, "Turon" harbiy teatri, Mudofaa vazirligi qo'mondonligiga qarashli harbiy xizmatchilar hamda Mudofaa vazirligi alohida ko'rgazmali-namunalik harbiy orkestr ijodkorlari tomonidan tayyorgangan badiiy-ijodiy dastur namoyish etildi.

Bunday yirik xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning o'tkazilishi nafaqat Amir Temur merosini ilmiy jihatdan tadqiq etish, balki O'zbekistonning tarixiy merosini jahon miyosida tanishda ham muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Shahriyor IBROHIMOV



BOQIY MERO



YANGICHA E'TIROF

Bu yilgi Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish yuzasidan ishlab chiqilgan konsepsiya ushbu ayyomni xalqimizning ulug' namoyandalari tavallud ayyomlari bilan hamohang tarzda nishonlash katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlanib, bunday ulug' siymolar qatorida Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniying tabarruk nomi ham qayd etilgan.

Ochig'ini aytganda, biz har yili ommaviy axborot vositalarida, turli ma'nnaviy-ma'rifiy tadbirlarda dunyoviy ruhda ijod qilgan taniqli shaxslarning tug'ilgan kunlarini nishonlaymiz. Lekin diniy-tasavvufi yo'nalishda faoliyat olib borgan buyuk zotlarning yubileyarini o'tkazamiz-, tavallud kunini bilmaymiz ham, eslamaymiz ham. Bu yil ana shu kemitlikka barham berildi. Chunki Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan Mahmud Zamashariy, Xoja Abdulkholiq G'ijduvoni va Alixonta'ra Sog'uniy kabi diniy-tasavvufiy yo'nalishda faoliyat olib borgan buyuklarning tavallud kunlarini Navro'z bayramiga hamohang tarzda keng nishonlash belgilandi.

Bu – an'ananing boshlanishi. Ishaqchimiz komilki, har yili shunday bo'ladi.

XOJAGON-NAQSHBANDIYA TARIQATI ASOSCHISI

Xoja Abdulkholiq ibn Abduljamil G'ijduvoni – tasavvuf tarixidagi yirik nazariyotchilardan biri, xojagon tariqatining asoschisi. Keyinchalik u "Xojayi Jalon" ("Jahoning Xojas") laqabi bilan nom qozongan. Hozirgacha ham mahalliy aholi o'ttasida G'ijduvon shahrini ana shu ulug' shayx haqqi-hurmatidan "Xojayi Jalon" deb atash an'aniyi mavjud. Ul zot 1103-yili Buxoroning G'ijduvon qasabasida tug'ilib, 1179-yili shu yerda vafot etgan. Xojobon-naqshbandiya tariqatidagi Buxorodan o'tgan yetti piarning sarhalqasi, ya'ni birinchisi hisoblanadi.

"Zikri voqeoti Xojayi Jalon Abdulkholiq G'ijduvoni" asari (1717-yili ko'chirilgan)da ma'lumot berilishicha, Abdulkholiq 9 yoshida Qur'oni Karimni yod olgan, 10 yoshidana boshlab davreshlar o'tkazadigan zikr marosimlarida faol ishtirok etgan, buxorolik ustozni Imom Sadreddindan Qur'oni Karimni tafsir qilish ilmini o'rgangan. 22 yoshida Abdulkholiq Eronning Hamadon shahridan Buxoroga qaytib kelib, tasavvuf targ'iboti bilan shug'ullanba boshlagan Xoja Yusuf Hamadoniya murid tushadi. Shundan so'ng qolgan umrini tasavvuf xizmatiga bag'ishlaydi. Bu ta'lomit nazariysi va amaliyotiga oid "Risolayi sahobiya", "Maqsad as-solikin", "Maslak ul-orfin", "Maqomoti Yusuf Hamadoni", "Tariqat odobi" deb nomlangan besh asar bitgan. Shogirdlar tarbiyasi bilan shug'ullangan. O'z ruhini kamolga yetkazishda yuksak darajalarga yetishgan.

Abdulkholiq G'ijduvoni o'z ustozni Yusuf Hamadoni joriy etgan zikr mahali amal qilinadigan to'rtta rasshanai ("Hush dar dam", "Nazar bar qadam", "Safar dar vatan", "Xilvat dar anjuman") yana to'rttaga ("Yodkard", "Bozgash", "Nigohdosht", "Yoddosht") ko'paytirib, bu qoidalarni 8 taga yetkazdi. Shu tariqa u amaliy jihatdan yangi xojagon tariqatini boshlab, uni nazariy jihatdan asoslab berdi.

G'ijduvoni tasavvuf xalqaro eng so'nggi, shu bilan birga, eng mukammal tariqatni boshlab berdi. XIV asrda Bahouddin Naqshband bu tariqatini takomilga yetkazdi va u avval "xojobon-naqshbandiya", keyinchalik esa to'g'idan to'g'ri "naqshbandiya" deb yuritiladigan bo'ldi.

G'IJDUVON MADRASASI KIMNING SHARAFIGA QURILGAN?

Abdulkholiq G'ijduvoniying qabri – G'ijduvon shahrida. Mirzo Ulug'bek bu ulug' zot haqqi-hurmati uchun 1433-yili uning qabri atrofida madrasa qurdigan. G'ijduvoni tavalludining 915-yilligi

G'ijduvoniying KIM EDI?

munosabati bilan bu yerda qadimiy an'analarga muvofiq yangi majmuva barpo etildi.

O'NINCHI HALQA

Garchi Muhammad payg'ambar (s.a.v.) dan boshlangan oltin silsilada G'ijduvoni o'ninchi halqa hisoblansa ham, u kishi xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi, ya'ni birinchisi piri sifatida hurmat-ehtiromga ega bo'ldi.

2002-yil 4-dekabrda Vazirlar Mahkamasining "Abdulkholiq G'ijduvoni" tavalludining 900 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 2003-yil 27-noyabrda ushbu qutlug' sana YUNESKO ishtirokida yuksak tashkili saviyada o'tkazildi. G'ijduvoni hazratlarining qadamjosi kengaytirilib, ajiy ziyyatgohga aylantirildi. Majmua tarkibida yangi masjid ham bor. Maqbara yoniadigi Mirzo Ulug'bek madrasasi ta'mirlandi. Bugun bu yerga dunyoning turli burchaklaridan ziyoratga kelishadi.

XUFIYA ZIKRNI KIM O'RGAETDI?

Abdulkholiq G'ijduvoni Hamadoniy ta'limitoni har tarafla boyitib, tasavvuf amaliyotiga xufiya zikrni olib kirdi. Tasavvufda zikr tushish, ya'ni muayyan tartib-qoida asosida Xudoning nomlarini zikr qilish muhim amaliyot hisoblanadi. Ayrim tariqatlar, masalan, yassaviyada baland ovoz bilan ko'philish bo'lib zikr tushish bor, mavlaviyada esa raqs-u samo, ya'ni bi paytning o'zida ham ovoz chiqarib zikr tushish, ham raqs qilish an'anasi kuchli edi. Xojagon tariqatida joriy etilgan xufiya zikr talabi bo'yicha esa so'fiy ovoz chiqarmasdan, birovg'a ko'sratmasdan, xufiya, ya'ni yashirinchalarga zikr tushish.

Manbalarda xufiya zikrni G'ijduvoniya Xojayi Xizr (a.s) o'rgatgani qayd etiladi. Alisher Navoiyning dalolat berishicha, Xizr payg'ambar (a.s) G'ijduvoniya hovuz suviga sho'ng'ib, ko'ngilda: "Lo lloha illalhu Muhammad ur-rasululloh", deb zikr aytishni buyurgan. Umuman, avliyolik holatlarni xalqdan yashirib yurish, uni ommaga oshkor qilmaslik G'ijduvoniying kamtarona yo'li edi. Holbuki, uning valiylik darajasi shu qadar yuksak ediki, Navoiyning dalolat qilib yozishicha: "Har vaqt namozda Ka'bag'a bo'rular edi".

QALBNI "O'QIY" OLGAN AVLIYO

Navoiy Abdurahmon Jomiya suyangan holda bu avliyoning boshqa ba'zi karomatlarini ham bayon qiladi. Xususan, shayx bir jamoaga ma'rifikatdan ma'ruza qilib o'tirgan edi. Shu mahal bir yigit zohidlar kiyimida, ya'ni egnida xirqa kiygan, yelkasiga joynamoz tashlagan holda kelib, bir chekkaga o'tribdi. Hazrat negadir unga qiziqish bilan qaraydi. Shunda haligi yigit Shayxidan: "Mo'minning farosatidan qo'rqing, chunki u ulug' va quadrati Alloh nuri bilan boqadi", degan hadisning siri nimada? deb so'raydi.

U zamonlarda musulmon dinida bo'lmagan kishilar o'zining boshqa dan vakili ekanini bildirish uchun beliga zunnor (ip) bog'lab yuray edi. Haligi notanish yigitning savoliga G'ijduvoni farosat bilan shunday deb javob qaytardi: "Bu hadisning sirri budurki, xirqang ostida qizunoringni kesib, iymon kelturgaysen". Shunda yigit bu karomatdan hayratga tushib, darhol sunnorini kesadi, iymon keltirib, musulmonchilikni qabul qiladi.

KIMNING DUOSI QABUL BO'LADI?

Bir umidvor kishi G'ijduvoniying: "Bizni shunday duo qilingki, Shayton domidan eson-omon jon saqlaylik", deb iltimos qildi. Oddiy bir duoxon bo'lsa: "Kel, menden nima ketdi, bir duo qilsam, qilibman-da" deb, duo berib yuboraverar edi. Ammo G'ijduvoniunga: "Kishi farzlarini ado etsagini uning duosi jrobat bo'ladi. Sen farz adosi bilan mashg'ul bo'l va bizni yaxshi duolar bilan esga ol. Biz ham farzlaradosidan keyin seni duo qilaylik. Shunda ham sening, ham bizning duomiz jrobat bo'lga'y", dedi.

**G'ijduvoni tog'i etagi bizga makon,
Lek hukmimiz ostida erur hattoki Rum.**

Xoja Abdulkholiq G'ijduvoni

MANSUR HALLOJ NEGA DORG OSILMAS EDI?

Alisher Navoiy bu ulug' shayx haqida: "Alarming ravishi tariqatda hujjatdur. Barcha foruq (haqni botildan ajratuvchilar)ning magbulidurlar", deb yozadi. Chunki G'ijduvoni muridlar va daveshlar uchun axloq-odob qoidalari majmuasini ishlab chiqadi. Tasavvufni mo'tadillashtirib, siyosatga va rasmiy dingga yaqinlashtiradi, uning hayotiy mohiyatini ochib beradi. Xoja Ali Romitaniy: "Agar Yer yuzida Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni farzandlaridan (ya'ni shogirdlaridan) biri bo'lsa edi, Mansur Halloj hech qachon dor ostiga bormas edi", deganida ham aynan bu shayxning tasavvufni mo'tadillashtirganini ko'zda tutgan. Chunki Halloj: "Ana-l-Haq", ya'ni: "Men Xudoman" degani uchun jazolangan. Lekin u buni xalqqa ochiq-oydin so'zlagan, naqshbandiya shayxlari ham shu fikrda, ammo ular buni, birinchidan, hammaga aytмаган, ikkinchidan, silliq qilib ifodalagan.

VOBKENT MINORASINI KIM QURDIRGAN?

Vobkent tumani markazidagi 1198-yili qad rostlagan, ya'ni 822-yilden buyon o'zbek milliy me'morchilagini dunyoga ko'z ko'z qilib kelayotgan go'zal minorasi ham aynan Abdulxoliq G'ijduvoniying shaxsiy mablag'i hisobiga barpo etilgan.

"KAM GAPIR, KAM YE, OZ UXLA!"

Faxruddin Ali Safiy (XIV asr)ning "Rashahot aynul-hayot" risolasida yozilishicha, G'ijduvoni o'g'liga qarata shunday deydi: "...Ilm-ma'rifat, axloq-odob, taqyo uchun hamisha sa'y-herakat qil; vaqtida namozingni o'qi, lekin imomlik va muazzinlik qilma; o'zingdan keyin qimmataho asar va ta'lifot yozib qoldir; sunnat va jamoat ahli mulozamati uchun intil; fiqh va hadis ilmalarini to'xtovsiz o'rganib bor; hargiz shuhrattalab bo'lsa, chunki shuhrattalablikdan doimo afkatledi; mansabga muqayyad bo'lib qolma (mansabparast bo'lsa), doimo kamtar bo'lishga harakat qil; xonaqoh qurma va xonaqohlarda yashama; kam gapir, kam ye, oz uxla; o'z xilvatingda bo'lib, hamisha halol va pok yasha, halol ye; hadeb xandon tashlab kulavurma, qah-qah otib kulisil diliy vayron etadi; har bir kishiga mehr-shafqat ko'z bilan boq, hech kimni o'zingdan past hisobla, uni tahrir etma; zohiring (tashqi ko'rining) oroyishiga ko'p ahamiyat berma, chunki bunday a'moldan botining (ichki ko'rining) rasvo bo'ladi; xaloyiq ila mujodala (tortishuv, bahs-munozora)ga borma; birovdan aslo biror narsa ta'ma qilma; birovni xizmatga buyurma (xizmatkor tutma); mashoyixlarga mol-uning bilan sidqidildan xizmat qil; mol-dunyoga mag'rur bo'lsa, o'shanda diling orom oladi".

Shayxning bu kabi axloq-odobga oid pandasihatlar, ibratlari so'zlari, hayot tarziga aylangan qonun-qoidalari keyinchalik naqshbandiylik sulukiga kirgan daveshlar uchun asosiy mezon bo'lib qoldi. Chunki bular xojagon-naqshbandiya ta'limotoining mazmun-mohiyatini tashkil etar edi.

G'ijduvoniying meros bo'lib qolgan she'riy asarlarda ham mohiyatni tariqat qat'iyatlari ilgari surilgan. Ulardan birida:

*Dari xilvat band-u bari suhabato kushoy,
Dari shayxuro band-u dari yoriro kushoy, –
ya'ni: "Xilvat eshigini yopib, suhabat eshigini och, shayxlik eshigini yopib, yorlik, ya'ni do'stilik eshigini och", deyiladi.*

IKKI OLAM SAODATI

Xojagon-naqshbandiya tariqatining bosh yo'liga aylangan "Dil – ba yor-u, dast – ba kor", ya'ni "Ko'ng'ling – Alloha, qo'ling – ishda bo'lsin!" degan mohiyatian teran ma'noga ega buyuk shiori ham ilk bor aynan G'ijduvoni hazratlari o'taga tashlagan. Tariqatning qolgan barcha shior (rashha)lari, ya'ni hayotiy qoidalari ham mantiqan ana shu bosh g'oyaning zamirida paydo bo'ldi. Shu tariqa xojagon tariqatidan boshlab tasavvuf tarixida keskin burilish yuz berdi. Endi so'fiylida, inson Haqqa yetish darajasida komillikka erishishi mumkin va buning uchun Yaratgan halol etgan hayot, tirkilik lazzatlaridan voz kechish, tarkidunyochilik qilish shart emas, aksincha, odamzod umr bo'y ezzulikka intilishi, tinimsiz bonyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'lishi, o'zidan bu dunyoda munosib iz qoldirishi, shu tariqa umraboqiylikka daxldor bo'lishi lozim, degan xulosa hukmon bo'la boshladi.

Sultonmurod OLIM,
"Naqshbandiya" jurnali
bosh muharriri




Boshlanishi 1-sahifada:

Mutaxassislarining fikricha, O'zbekistonda zamoniaviy geografiya fanining poydevori aynan Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan XX asrning boshlarida chop etilgan qator jug'rofisi asarlar bilan bog'liqdir.

Yoshligidanoq arab tili grammatikasi, matematika, huquqshunoslik asoslari, geografiya, mantiq, filologiya kabi fanlarni chuqur o'rgangan alloma XX asr ostosonida dunyo mamlakatlariiga sayohat qilish, ulardag'i ijtimoiy hayotni o'rganish orqali o'z dunyoqarashini kengaytirishga ahd qildi. Jumladan, 1899-yilda u muqaddas Haj ziyoratiga borish maqsadida o'zining ilk safarini boshladi. Safar Rossiya, Qrim, Eron, Turkiya va Misrning turli shaharlarini orgali amalga oshirilgan. Olim uzoq yo'lni o'sha vaqtida mavjud bo'lgan barcha vositalar – poyezd, kema, ot va tuyalar hamda ba'zi joylarda piyoda bosib o'tgan. Sayohat Behbudiya turli hududlarni ko'rish, ularni qiyoslash va mavjud tafovutlarni tahlil qilish imkonini yaratdi.

Demak, birinchi haj safari qahramonimiz uchun katta ma'niviy ahamiyatga ega bo'igan.



tanishtirgan bo'lsa, "Sayohat xotiralari" Turkiston ahli uchun asosan musulmonlar yashaydigan Sharqi kashf qildi".

Behbudiy o'z asarlarida tarix va geografiyaning jamiyatda tutgan o'rniga ham alohida ahamiyat berib, uning insoniyat jamiyatida ilk davrlardayog shakllangan dunyodagi eng qadimgi fanlardan ekanini ta'kidlagan. U bu boradagi ilmiy qarashlarini "Tarix va jug'rofiya" deb nomlangan ilmiy maqolasida bayon etgan. Uning fikricha, tarix va geografiya inson uchun quyosh kabi zarurdir.

BEHBUDIY VA JUG'ROFIYA

Chunki olim o'sha vaqtarda ilm-u fan va ta'lif rivojlangan mamlakatlarga tashrif buyurdi. Bu yurtlardagi o'qitishning yangi uslublari, madrasa va pedagogik tizimlarni islohot qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning shohidi bo'ldi. Tashrif buyurgan manzillarida sotib olingan gazeta, kitob, jurnal, darslik va o'quv dasturlaridan esa safardan so'ng Turkistonda ma'rifatni rivojlantirish yo'lida keng foydalandi.

Ilk haj safaridan qaytganidan uch yil o'tgach, Behbudiy 1903-1904-yillarda Sankt-Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg shaharlarini va Qrimga sayohat qilib, bu yerlardagi ta'lif metodlari bilan tanishdi. Olimming ushbu safari uning Turkistonda yangi uslubdagi maktablarni rivojlanirish bo'yicha g'oyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'idi.

Turli mamlakatlarda bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'z faoliyatida dunyoviy bilim va mada-niyatni targ'ib qilishga alohida ahamiyat qaratdi. U 1913-yildan "Samarkand" gazetasi va shu yilning avgustidan "Oyina" jurnalini nashr ettra boshladi.

Sakkiz oylik sayohati davomida ma'rifatparvar sayyoh ulkan hajmdagi ilmiy ishlarni jumladan, o'zi tashrif buyuryan shaharlar va mamlakatlardan aholisining ijtimoiy-siyosiy ahvoli bo'yicha kuzatishlarni amalga oshirdi. Kuzatishlari natijalarini o'z safar kundaligida qayd etib, ularni "Sayohat xotiralari" nomi bilan chop qildi. Mazkur xotiralar tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, Rossiya imperiyasi va Yaqin Sharq mamlakatlari shaharlarining XX asr boshlaridagi hayotining yaqqol manzarasini namoyon qiladi.

Jumladan, ushbu hududlarning aholisi, qishloq xo'jaligi madaniyati, yashash tarzi va savdo aloqalarining turli jihatlari sayyoh tomonidan qiziqarlari fidodalangan.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi Misr, Suriya, Jazoir va qator arab mamlakatlari Behbudiy tomonidan berilgan tavsiyatlarning me'morhiligi, siyosiy ahvoli, aholining asosiy mashq'uloti, urfatdalar, banklar, temiryo'l va boshqa muassasalarning faoliyati, hatto, yo'l chiptasi hamda mehmoxonada tunash narxlari haqida hikoya qilgan.

Esdaliklar turkistonliklarga xorijiy mamlakatlardan hayotining barcha qirralari bilan yaqidan tanishish imkonini berdi. Bu haqda nemis olimi I.Baldauf shunday yozgan edi: "Behbudiying 'Oyina'" jurnalni O'rta Osiyoliklarni Parijdan Yaponiyaga qadar bo'lgan mamlakatlar bilan

Tarixni yaxshi bilmoq uchun geografiyanadan, ayniqsa, tarixiy geografiyanadan puxta xabardorlik zarur. Shu bo'si, Behbudiy o'zining "Oyina" jurnalida chop etilgan ilmiy maqolalarida muntazam ravishda turli fanlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni berib borgan. Mazkur jurnalida chop etilgan mavzular iqtisod, siyosat, madaniyat va fanning turli sohalariga daxldor bo'lib, ularda qator muammoli masalalar ko'tirilgan.

Ayniqsa, olim "Geografiya nima?", "Dunyoda qancha aholi va xalq bor?" nomli maqolalarida geografiya fanining vazifalari, uning tadqiqot obyektlari, aholi geografiyasini va etnografiya haqida so'z yuritgan. O'rta Osiyo va Turonning Behbudiy tomonidan tasvirlangan qadimgi geografik chegaralarning hozirgi zamondan mutaxassislarini e'tiborini tortishi shubhasi.

Olimming "Ulug'bek rasadxonasi", "Yer", "Quyosh" kabi ilmiy-ommabop maqolalarini, boshqa mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlardan tarjimalari o'z zamonasida qiziqib mutolaa qilingan. Bunday maqolalarning geografik miqyosi keng bo'lib, turli hudud va qit'alarni qamrab olgan. "Oyina" jurnalida Hindiston, Xiton, Indoneziya, Rossiya aholisining ijtimoiy hayoti haqida qiziqarli lavhalar muntazam chop etilgan.

Zamondoshlari olimming to'la asarlarini to'plamini chop etishni rejalashtirib, u haqda qator maqolalar yozishib. Ammo XX asrning 30-yillardan boshlab Behbudiya sovet ma'murlari tomonidan "millatchilik harakati yo'lbo'shchisi" tamg'asi bosilib, qatag'onga uchrashi tufayli ushbu rejalar amalgalashuv qolgan.

Mustaqillik sharofatini bilan O'zbekistonda milliy ta'lif tizimini yaratishga katta hissa qo'shgan jadidlarning, shu jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiying faoliyatiga oid tarixiy haqiqat qaror topdi. Ularning ilmiy merosi, shu jumladan, Turkistonda geografiya fani rivojiga qo'shgan hissasi hozirda O'zbekiston Respublikasidan tashqari Germaniya, Turkiya, AQSh, Yaponiya va O'rta Osiyo mamlakatlari olimlari tomonidan keng o'rganiлоqda.

Zero, Behbudiy yaratgan asarlar yurtimizning XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragidagi geografiysi, shu jumladan, iqlimi, tabiiy resurslari, aholisining ijtimoiy hayotiga oid qimmatli manba hisoblanadi.

Karomiddin GADOYEV,
geografiya fanlari nomzodi

Shuningdek, u 75 dan ortiq davlat tariflar bo'yicha muzokaralar o'tkazish iltimosi bilan AQShga murojaat qilganini aytdi.

Xitoy hukumati esa AQShdan import qilinadigan barcha tovarlar uchun bojlarni 84% gacha oshirdi.


FALASTIN MUSTAQILLIGI TAN OLISHI MUMKIN

Fransiya prezidenti Emmanuel Makron mamlakat iyun oyida Falastin davlatini rasman tan olishi mumkinligini ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, Saudiya Arabistoniga bilan birgalikda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro anjumanda ikki davlat yechimi masalasi muhokama qilinadi.

Biz Falastinini tan olish tomon harakatlanishimiz kerak va yaqin oyldarda bunga erishamiz. Maqsadimiz – ushbu konferensiya daraislik qilish va bir qator davlatlar bilan o'zaro tan olish jarayonini yakunlash", dedi Makron Misrga ikki kunlik



Xitoy uchun import bojlari 104 foizidan 125 foizga oshiriladi. "Xitoyning jahon bozorlariga hurratsizlik ko'rsatayotgan sababli men AQShning Xitoydan oladigan bojlari 125 foizgacha ko'taraman. Umid qilamani, yaqin kelajakda Xitoy AQSh va boshqa mamlakatlarni talon-toroj qilish mumkin emasligini tushunib yetadi", deb yozdi Tramp Truth Social ijtimoiy tarmog'iда.



"Biz Falastinini tan olish tomon harakatlanishimiz kerak va yaqin oyldarda bunga erishamiz. Maqsadimiz – ushbu konferensiya daraislik qilish va bir qator davlatlar bilan o'zaro tan olish jarayonini yakunlash", dedi Makron Misrga ikki kunlik

ORAMIZDAGI ODAMILAR

“HAQIQIY QAHRAMON KO'ZDAN SAL CHETROQ”

Bilasiz, Rishton kulolchilik tajribasi bilan dong taratgan, ilm-u hunar hadisini oлган ko'plab ziyoilarni tarbiyalagan zamin. Bu yerning ilmi, mehnatkash insonlaridan biri Qodirjon Qosimov ishbilgi odam: bir vaqtning o'zida dehqon, bog'bon, tadbirkor. Eron va Turkiyadan noyob pista navlari keltirib, laboratoriya usulida yetishtirib, katta maydonda bog' yaratgan. Farg'onaga safarimiz ular bilan hamsuhbatlikda yanada qizq'in in o'tdi va taassurotlarimizni sizga-da illindik.

“OQ OLTIN” QOLDIRGAN DOG'

Sovet hukumati uchun Markaziy Osiyo tayyor xomashyo manbayi, Turkiston xalqlari esa tekin ishchi kuchi edi. Bosqinchilar qo'liga ilingulik moddigi va ma'niviy boyliklarni tashib bo'lgach, mintaqani bo'lak-bo'lakka ajratib, har bir hududni muayyan sanoat yo'nalishiga ixtisoslashtirdi. O'zbek xalqi chekiga "oq oltin" tushdi. Shu tariqa butun boshli mamlakat Paxta ishi nomi ostida avj o'lgan maydoniga aylantirildi. Oqibatda bobolar tiklagan bog'lilar qo'porildi, bo'liq tuproq kimyoviy moddalarini binal zaharlandi, xalq zaqqum hidini yutib yashashga majbur bo'ldi. Suv resurslaridan uzluksiz va palapartish foydalanish esa Orol dengizining qurishiga olib keldi. "Paxta ishi" nomi ostida avj o'lgan siyosiy kampaniya ham qizil qataq'oning bir ko'rinishi edi.

Bugun ham o'sha ekologik fojialarning asoratini o'z tanimizda his qilamiz. Bunday chuchur zaxmlar shor'xpaxta bosgan bilan keta qolmas ekan...

Shukrki, qishanlari parchalandi, erkimi o'z qo'llimida. Bugun mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash eng muhim masalalardan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Respublikada yashillik" darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummillik loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bu boradagi ishlarga mustahkam asos bo'ldi. Qarorda "yashil" texnologiyalarning joriy etish, sunvi tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhim, aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berildi.

Paxta yakkahokimligiga barham berilib, har bir hududning ijlim va tuproq sharoitiga mos ekinlar ekish yo'lga qo'yildi. "Yer bo'lsa, mehnat qilaman, ekip-tikaman, bog' yarataman", degan mehnatsevar dehqon va bog'bonlarga yerlar uzoq muddatga va imtiyozi shartlarda ajratib berilmoqda.

SUV YO'QLIGIDAN EKILGAN PISTA

Rishton kulolchilik maktabining jahonga dengiz taratgani bejiz emas. Sopol yasash uchun to'g'ri kelgan joydan tuproq olinmaydi. Rishtonning pishgan loyi esa sarayog'day kesiladi. Hamma gap asosda. Endi mana shu qizil tuproqda, toshloq qir-adirliklarda

ham bog' yaratса bo'ladimi, desangiz, "Bo'ladi!" deyman. Keling, o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni so'ylab beray.

– Besh yillardan oshdi, – deb hikoyasini boshlaydi qahramonimiz. – Turkiya safarida Gaziantepga borganimda qadamda pista bog'lariga duch keldim: ko'chalarda, uylarda ham pista butalari. So'ng bilsam, shahar iqtisodiga katta ulush shu bog'lardan kelarkan. Daromadi-yu buromadiga qiziqdim. Qarasam, bu joylar iqlimi, tuprogi o'zimizning yerga tortadi. Sug'orish usullari bilan qiziqdim. "Suv yo'qligidan pista ekkanniz-ma", deb kulib go'yishdi. "Bizada ham yilda yilga suv tanqis bo'lib boryapti, shu ishni o'zimizda sinab ko'rsak bo'larkan", deb o'ylagandim o'shanda. Shu-shu, o'zimiznikilar gapni bir joyga qo'yib, ishga yosh shimidrik. Boshqa davlatlar tajribasini ham o'rgandik. Mana, natijani ko'rib turibz.

Pista yetishtirishda AQSh, Eron, Turkiya kabi davlatlar yetakchi. Biz urug'larni, asosan, Eronidan keltiramiz. Hamma turidan bor: xandon, ahmadiy, mumtoz, do'lana, o'zimizning Farhod-Shirin. Mana bu qulashga kelgani – akbari...

Hozir bog'izning umumiy maydoni 157 hektar, ko'chatlar 150 ming tupga yetdi. Keling, daromadni bir chamlab ko'raylik, 150 ming turnping har biridan bir kilodan pista oldim deb hisoblasangiz, chiqadi – 150 tonna. Mayli, kilosi 100 mingdan deylik. Ko'paytirsak, 15 milliard so'm! Chama uchun bir kilodan hisoblaganimiz bir tupdan tobiga kelganda 30-40 kilo hosil olish mumkin. Mavsum yaxshi kelsa, bog'ning ozi bir yilda barcha yasharjati qoplab beradi. Shunaqqa barakali. Shuning uchun pistani "oltin daraxt" deyishadi-da.

Pista arzon mahsulot emas. Bozorlarimizda o'tacha 150-200 ming so'm atrofida. Bilasiz, biznizniklar pista-bodomni asosan to'y-to'ychiqda oladi, o'zi yemay, mehmonga olib qo'yadi. Hosilni ko'paytirib, kilosini ancha arzonlatsak, odamlar ko'po'lib yeydi. Salomatlik uchun koni foyda. Maqsadimiz shu, avvalo, o'zimizning bozorlar to'lsin, birinchi o'rinda xalqqa naqizimiz tegsin. O'zimizdan ortgani eksportiga.

Bular hali katta ishning debochasi. Mana bu qurilayotgan binolar kelajakda in-vitro laboratoriya, ilmiy markaz va agromaktabni birlashtirgan yaxlit kompleks bo'ladi. Turkiya bilan kadrlar masalasida memorandum imzolaganimiz. Ilm, amaliyot va tajriba bir nuqtada birlashsa, eng yaxshi mutaxassislar yig'ilsa, yaxshi haq to'lansa, albatta, ertaga natija ham yaxshi bo'ldi. O'zimizning bolalar ta'l'im oladi, umuman, yer ilmi nazariy va amaliy o'rgatiladi.

Bizning dehqon, bog'bonlar zamonaviy ilmdan, yangi texnologiyalardan bexabar qolayapti. Shunga ichini achiydi. Izlanish yo'q, yangilikni qabul qilishi qiyin. O'z qolipiga tushmasa, ko'nmaydi, xato sanaydi. Ko'pchilik tasavvurida dehqonchilik, bog'dorchilik jo'n yushmanlikdeko'rinad. Aslida, bu katta ilm. Zamon o'zgarib boryapti. Zamondan ortda qolmasligimiz kerak. Undabunda sovet davridan qolgan besamar



bog'larni ko'raman: bekor joy egallab yotibdi, tomchilab sug'orish joriy qilinmagan, bir dunyo suv shovullab oqib borad-yu, tezda yer tagiga singib ketadi. Eng yomoni, hosil eksport qilishga yaramaydi. Ana o'sha bog'larni yangilash kerak.

Tomchilab sug'orish juda muhim masala. Avvalo, suv tejaladi, o'simlik suvni teng miqdorda ichadi, mineral o'gitilar teng taqsimlanadi, bir xil oziglanadi. Qolaversa, birlari g'ovlab, birlari qurib-qovqirab qolmaydi. Teng bo'y tortadi, bir xilda yashnab turadi.

In-vitro dedim-ku, shunga ham to'xtalib o'tay. Bunda o'simliklarni shisha idishlarda o'strish nazarda tutiladi. Ustunligi shundaki, laboratoriya sharoitida bo'lgani uchun mavsum tanlamasdan, o'simliklarni istalgan faslda ko'paytirish mumkin. Keyin bu nihollar kasallikka chidamli bo'ladi, tez amal oladi. Pista, odatda, yetti-sakkiz yilda hosilga kirma, in-vitrodan chiqqani uch yilda meva bog'laydi.

Bundan tashqari, butalar orasiga kovrak ekanman. Yana turli dorivor tog' o'simliklari: isiriq, kiyiko't, tog' yalpizi... Tabobat uchun. Hamma mehriyoh o'zimizda, asli. Prezidentimiz topib aytganlar: "Ilm bilan bog' yaratish kerak". Bosh maqsadimiz – bog'dorchilikda yangi maktab ochishdir.

ZAMON BILAN HAMNAFAS

Poytaxtga qaytarkanman, yo'l-yo'lakay bog'-rog'larga ko'z qadab, ob



"OTKAN KUNLAR" – 100 YOSHDA

Otam Habibulla Qodiriyning aytishlaricha, "O'tkan kunlar"ning ayrim boblari 1923–1924-yillarda "Inqilob" jurnalida bosilish turgan. Masalan, "Otabel Yusufbek hoji o'g'i", "Xon qiziga loyiq bir yigit", "Bek oshio", "Marg'ilon havosi yoqmadni", "Kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa", "Majburiyat", "Chaqimchilik" kabi boblar. 1925-yilning kelib esa asarning birinchi bo'limi alohida kitob bo'lib nashr etilgan ekan. Ushbu sana munosabat sabab, "O'tkan kunlar" bilan bog'liq ba'zi xotiralarni o'tqoqlashishga jazm etdi.

Otamiz o'z xotiralarida shunday yozadilar: "...1932–1934-yillar miyonasi bo'lsa kerak, uymizda bir tilla soat paydo bo'lib qoldi. U uch qavat qopqoqlik, zanjiri tilladan, rim raqamlari ham zarhal katta yon soat bo'lib, dadam ijdokonasida, tokcha qoqig'ida, ust qopqoqi ochiq holda osig'liq turar edi. Biz ba'zan vaqtini biliish uchun bu yaraqlagan soatga qarab qo'yari edik. Yodimda, bir gal bu soatni qo'limga olib turdim-da, havaslanib, kursida yozib o'tirgan dadamga dedim:

– Ada, ruxsat etsangiz, shu soatni taqib bir gal maktabga borib kelay...

Dadam bosh ko'tarib ijaydilar:

– Yo'q, bo'lmaydi!

Bu soatning uymizda qanday paydo bo'lgani meni u chog'larda qiziqitirmagan edi (balki, sotib olgandirlar, deb o'ylagandirman). Oradan ko'p vaqt o'tmay, tilla soat gozida yo'q bo'lib qoldi (chamasi, u oyimning bisot sandiqlariga tushib ketdiyov) va uni boshqa ko'rmasidim. Endi qirq yildan ortiqki, u soatdan faqat xira-shira xotira-manzara qoldi, xolos.

...1975-yilning dekabr oyi oxirlarida xizmatidan ta'til oldim-da, havo almashtirish, do'stlar mulogotida bo'lish maqsadida Dushanbe shahriga bordim. Unda ba'zi do'star mening me'da xastaligi bilan og'rib yurishimni bilgach: "Bizda me'da-ichak kasalliklarini davolovchi maxsus ilmiy-tekhkhirish instituti bor, shunda yotib bir davolaning", deyishdi. Maslahat menga ma'qul tushdi, ular vositasida mazkur kasalxonaga yotdim.

Kasalxonada yashayman. Tojik do'stlar musofirligimni bilintirmslik uchun kuni sayin xabar olib turishadi. Bunday do'stlardan biri Abdug'affor Hasanov (bu kishini menga qalamkash do'stim Abdulla had Qahhorov tanishitigan edi). U qistako'zlik, yetishmash yoshlarda, ko'hna maorifchi, klassik adabiyotimizning bilag'oni, xushchaqchaq odam...

1976-yil yanvar o'rtalari bo'lsa-da, havo hamon iliq, qor-yomg'isriz qurg'ochchilik edi. Bir dan olish kuni domla Hasanov shoshilgannamo xonamga kirib keldi. Ko'rishdik, domlaga o'tirishga joy ko'satdim.

– Yo'q, – dedi u kishi o'tirmay, – sizni ko'rgani mehmonlar kelishgan. Kiyingin, tashqariga chiqamiz.

– Qanday mehmonlar? – dedim ajablanib. – Ularni ham shu yerga chaqira qoling...

– Yo'q, ular ko'pchilik, xonangizga sig'ishmaydi, – dedi domla.

Men bunchalik ko'p mehmonlarning kimlar bolishini o'ylab, kiyinib tashqariga chiqdim va darhaqiqat kasalxonona hovlisidagi o'tirg'ichda gir aylanib o'tirgan o'nesh chog'lik kishilarini ko'rdim. Ularning hammasi keksa, yaxshi kiyingan, nuroniy otaxonlar bo'lib, barchalarini ham menga notanish edi.

Ko'rishib-so'rashib chiqqach, ma'lum bo'ldiki, ularning hammasi toshkentlik pensionerlar bo'lib, qish bekorchilikda sayohatga chiqishib, Dushanbegaga kelishgan ekan. Do'stleri domla Hasanov uyida mehmon bo'lismib, u kishidan kasalxonada yotganimi bilishib, garchi notanish bo'lsak-da, hamshaharlik hummati hol so'rab o'tishni lozim ko'rib kelishgan ekan...

Ba'zi rasmiyat gaplardan so'ng, mehmonlardan Ayubxon aka ismli to'qson yoshlarga borgan bir kishi meng hazil-mutoyliha qildi:

– Dadangiz va Rasulmuhammadboy bobongizni yaxshi bilardim... Oktyabr inqilobiga qadar men rus manufakturachi boylari qo'lida voyajurlik qilganman. Dadangiz Chorsudagi kalta rastada prikchalik qilganlarida mendan toplab gazmol olar edilar, – dedi va kulib davom etdi. – Biz bu sayohatimizdan aval Leninobodda bo'ldik, unda otangiz haqida yozgan kitobingizni ittifoqo topib olib o'qidi. Yozganlariging hammasi to'g'ri, ammo kitobingizning bir kamchiligi bor, mullo Habibullo...

– Qanday? – so'radim men.

– Rasulmuhammad bobongizning tillari biroz chuchukroq edi, shunisini qo'shmabsiz... – Masalan?

– Rasulmuhammad bobongizning tillari biroz chuchukroq edi, shunisini qo'shmabsiz...


Kulishdik. Men go'yo yalingandek bo'lib dedim:

– Bobomning bu "kamchilik"lari tog'alaramizdan ham eshitigan edim... Jon amaki, sizga ozgina pora va'da qilayin, ammo bobomning bu "kamchiligi"ni o'zga yerda oshkora qila ko'mrang, uyalamiz...

Yana kulishdik.

Shu vaqt mehmonlardan Muhiddinjon aka Ahadov ismli bir kishi:

– Buz bir vaqt dadangizga bir tillo soat sovg'a qilganman... – deb qoldi. Bu so'zdan menin qulog'imi dikkaydi:



Jahon adabiyotida uslub jihatidan farq qiladigan beshta romanchilik maktabi sayqallanib ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, fransuz, nemis, rus va hind romanchilik maktablaridir. Endi oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan – Abdulla Qodiriy.

"KUMUSHNING O'LDIRILGANINI KECHIRMAYMAN"

– Tilla soat sovg'a qilganmiz, deysizmi? Qachon, yayerda, nima uchun?

U kishi shunday hikoya qildi:

– Men asli qo'qonlik, 1932-yili Dushanbe shahriga ko'chib kelib, bir necha yil Zagoteksport idorasida ishlaganman. 1934-yilning erta bahori bo'lsa kerak, Dushanbe shahrida qarib yarim oy to'xtovsiz yomg'ir yog'di. Biz o'n ikki ulfat savdo xodimlari edik, shunday yomg'irli kunlarda qilarga ishimiz, borarga joyimiz yo'q, to'planishib faqat mehmondorchilik, kitobxonlik qilar edik. Ichimizda yoshi kattaroq'i o'shlisi Homidjon Obidjonov ismili bir kishi bo'lib, u anche o'qimishli edi. Bir kuni shu kishi "O'tkan kunlar" romanini topib kelib, o'qiy boshladи. Bu kitob bizni o'ziga juda bog'lab oldi. Uni eshitayotib, goh quvonar, goh kuyinlar edik. Niyojat, kitobni aza bilan tugatdik va dadangiz qalamiga rahmat o'qib, pul yig'ib kichkina xat bilan bir tilla soat sovg'a qilib yubordik. Birmuncha vaqtidan keyin dadangizdan qisqa mazmuni

Zudlik bilan ustozim buyurgan ishlarini bajardim. 1973-yili bo'lsa kerak, Abdulla Qodiriyning o'g'llari – Habibulla aka telefon qilib qoldilar. Salom-allikdan so'ng u kishi:

– Sizning otam haqlaridagi avtoreferatingizni o'qib chiqdim. Mumkin bo'lsa, bir uchrashsak, – dedilar.

Men umr yo'loshim – To'xtamurod akaning ruxsatsidan bilan kishini uyg'a taklit qildim. Habibulla aka shifokor ekanlar. Uzoq suhbatalashib o'tirdik...

– Siz otamni dunyoga tanibitisiz. Sizga katta rahmat! – deb minnatdorlik bildirdilar. – "O'tkan kunlar"ning nemischa tarjimasini bir ko'rsam, – dedilar.

Kitobni ustozim G'aybullo Salomovga ko'rsatdim. U kishi:

– Romanni tezda o'qib chiqing. Uning asli va ruscha tarjimasi bilan solishtirib, o'z fikringizni bildiring va ilmiy ishingizga qo'shib yuboring, – deb maslahat berdilar.

Zudlik bilan ustozim buyurgan ishlarini bajardim. 1973-yili bo'lsa kerak, Abdulla Qodiriyning o'g'llari – Habibulla aka telefon qilib qoldilar. Salom-allikdan so'ng u kishi:

– Hay, uchrashdingizmi?

– Hech kim yo'q.

– Shundaymi? Qachon keldingiz?

– Kecha.

– Qayerga tunadingiz?

– Choyxonada.

– Yaxshi tunadingizmi?

– Rahmat.

Shundan so'ng yigit yerga suv sepiy yurgan choyxonachi bilan tojikchalab so'zlashib ketdi. Ular gap orasida qah-qah otib kulishar edi.

– Ismingiz kim?

– Ubaydulla.

– Meniki Yodgor, raytorga ishlayman.

U choyxonachiga:

– Shodi ako, yakta choy tet, mehmonba, – dedi.

Choyxonachi bizga patnisda ikkiti issiq non bilan choy keltirdi. Yodgor nonni ushatar ekan so'radi:

– Ubaydullojon! Bu qanday kitob?

– "O'tkan kunlar".

– Chi?

– "O'tkan kunlar". Abdulla Qodiriy Julqunboyning romanini.

– Hikoyami?

– Ha. Zo'r hikoya.

Suhbatdan ma'lum bo'ldiki, Yodgor bu kitobni o'qimagan...

– Ubaydullojon, men bir-ikki o'toqlarim bilan tushlikha kelaman. Siz, albatta, shu yerga bo'ling. Maorifga o'zimiz olib boramiz, – deb xayrashib ketdi.

Yodgor uchta tengqur o'toqlari bilan aytgan vaqtida keldi. Ularni men bilan tanishtdi. Birga ovqatlandik. Ular ham do'konda ishlagidan boyvachcha bolalar ekan. Hammalari ham yoqimtoy yigitlar edi. Tushlikdan so'ng Yodgor meni maorif bo'limiga olib bordi. Hujjatlarimni topshirdik. Ertasi kundan boshlab ishga tushdashgan bo'ldim. Yotoq yerm ham tayin bo'ldi. Yuklarmi yotoqqa joylashtirdi. Rayon klubini qoshidagi alohida xona ekan.

Ahdashuvga ko'ra ishda so'ng hammamiz Yodgorjonning uyida mehmon bo'ldik. Taomdan so'ng ularning xohishiga ko'ra olib borgan "O'tkan kunlar"ni o'qishga kirishind. Kitobdag'i menga yod bo'lib qolgan joylarini juda raxon va ta'siri qilib o'qirdim. Ular esa xuddi joylarini mixlangandek edilar. Allamahalgacha kitobxonlik bo'ldi. Men toliqidim. Tanafus qildik.

Uning qozig'ida g'ilofli dutor osig'liq turardi.

– Dutorni kim chaladi? – deb so'radim.

– Hech kim. Ba'zan akam chaladilar, – dedi Yodgorjon.

– Oling-chi! – dedim-da, dutorni g'ilofdan chiqarib, sozlay boshladim. Hammaning ko'zi menda.

– Chalishni bilasizmi? – so'radi birovi.

– Nima chalib beray?

Mashq qilib berdim. Yigitlar xursand. Birisi o'nidan diq etib turib, o'yinga tushib ketdi...

Shu kecha Yodgorjonnikida tunadik. Ertasi bilan nonushtadan so'ng meni maorifga olib borib qo'yishdi.

Tushda yana birga ovqatlandik. Ishdan so'ng yana birisi uyiga taklit etdi. Kitob o'qish o'sha yerda davom etdi. Ularning menga mehr shunday ortidki, meni yonlaridan silijitmay qo'yildilar. Qisqasi, har kuminiz har yerdan shunday samimiy, do'stona kitobxonliq bilan o'taverdi. Hammalari ham "O'tkan kunlar"ni birinchini marotaba eshitishlari edi. Kitobdag'i voqealar ularga shunday shura etardiki, joyi kelganda hammanizing ko'zlarini jiqla yoshsa to'ldari...

Nihoyat, "O'tkan kunlar"ni o'qib tugatdik. Hanuz yodimda: bir kuni o'toqlarimning maslahatlariga ko'ra, hammamiz foytun bilan "O'tkan kunlar"ni so'lib olish uchun shaharga tushdashgan. Yaxshiyam "Labi hovuz" yaqinidagi kitob do'konida "O'tkan kunlar"bor edi. Ular o'toqlariga ham sovg'a qilish niyatida har birlari 2-3 tadan kitobdan sobit olishdi.

Shunday qilib, bir necha xonadonning kitob javonidan "O'tkan kunlar" joy oldi. Hozir ham ushbu kitob ularning uylarida, eng aziz va qimmatli xazina bo'lib saqlanayotganiga imonim komi!"

KECHIRDI, KECHIRMADI...

Toshkent davlat madaniyat institutida ishlab yurgan yillarim edi. Ustozim Baxtiyor Sayfullayev (Allah rahmatiga olgan bo'lsin) bilan Jizzax shahriga ijodiy safarga borgandik. U kishining yengil mashinasini haydab keta turib yo'l harakati qoidasini beldim, shekili, DAN xodimi mashinamizni o'txatdi. Men darrov tushib hujjatlarimni u kishiga berdim va:

– Shahringizda mehmonmiz. Bu yerlarga birinchiligi. Bilmasdan qidani buzib qo'ydim. Kechirasiz o'rtoq boshliq, – dedim. U kishi esa hujjatlarimni tekshirib: – Nega familyangiz bunaga? – deb so'radi.

Mashinadan tushgan ustozim meniunga tanishtdilar.

Shunda xodim: – Hammasini kechiraman. Lekin Kumushning o'ldirilganini aslo kechirolmayman, – deb hujjatlarimni qaytarib bergan edi.

Sherkon QODIRIY

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Sharif Yusupov – 1870-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Kalinin rayoniga prokuratorshusida ishlagan. Sharif Yusupov Chor hukumatni davrlida advokat, So'l eserlar partiyasining sobiq a'zosi, 1919-yili Eski shaharda bo'lib o'tgan Osipov qo'zg'olonida ishtirot etgan. "Sho'royi Islom" partiyasining faol a'zosi bo'lgan. 1937-yil 28-mayda dindorlarning yashirin yo'g'ini o'tkazganlikda, denga qarshilik, qarshilik ko'rsatganlikda, 1937-yil 5-dekabrdagi Olyi Sovetga o'tkazilan saylovni "yolg'on, aldov saylov" deb aytganlikda ayblangan.

1938-yil 25-fevralda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi" nomidagi 10 yil muddatiga ozodlikdan mahrum etilgan. Qamoq jazosini Toshkent temir yo'li Sirdaryo bekatiga yaqin Malik sovxozi mehnat lagerida o'tagan.

Oq

12-APREL - BUTUNJAHON AVIATSIYA VA KOSMONAVTIKA KUNI

“SAMOLARGA TERMILTIRGAN OROMIJON...”

Valentina Goryacheva
aviatsiya kursanti Yuryi
Gagaringa turmushga
chiqqonida hali nomi tarixda
qolishini bilmagan edi.
Oddiy raqs kechasiда past
bo'ili, ozg'in, taroshlangan
kirpisoch, shalrangqulok
yigitga sherli bo'idiyu,
hayoti butkul o'zgarib
ketdi. Keling, bugun
boshi osmonqa yetsa
ham odamiyigini saqlab
qolgan kosmonavt va uning
qahramon ayoli haqida
gaplashamiz.

MAXFIY
TOPSHIRIQ
Bir oqshom Yuryi Moskva-
ga shoshilinch jo'nab ke-

tadi. Sababini aytolmasdi,
topshiriq shunday bo'lgandi.
U eng qiyin sinovlardan, tibbiy
komissiyadan o'tib, 3000 dan
ortiq talabgorni yengdi. Bir
muddat o'tgach, Valentina
ham Moskvaga keldi. Garchi
ikkalasi bir uuda yashasada,
deyarli gapplashish imkon
yo'q edi. Gagarin erta ketib
kech qaytardi, topshirqlardan
charchagan er ayoliga e'tibor
berolmasdi. Ammo Valentina
uni tushunar, xalaqt ber-
masdi, aksincha, qo'llab-
quvvatlardi.

KOINOTGA PARVOZ
Gagarin doim qiz far-
zandari bo'lismeni orzu qilardi.
Ayoli unga ikki qiz hadya



qildi. 1961-yil mart oyida
ularning ikkinchi farzandi
Galina tug'ildi. Shu kunlarda
Gagarin xotinini bag'rige
bosarkan, ham buyruq, ham
iltimos ohangida "Qizlarni
ehtiyoq qil, Valyusha!" dedi.
Chunki u tarixiy jarayonga
tayyorgarlik ko'rardi.

...1961-yilning 12-apreli-
da Valentinaning oldiga
qo'shnisi yugurib chiqdi:
"Valyusha, radioni qo'y!
Yura kosmosda!". Yosh ona-
ning his-tuyg'ularini so'z
bilan ifodalash qiyin edi.
Endi Valentina birinchi kos-
monavtning ayoli bo'lishi
mumkin edi yoki bevasi...

YANGI HAYOT

Yuriy Gagarin insoniyat
tarixida birinchi kosmonavt
sifatida misli ko'rilmagan shon-
shuhrat bilan Yerga qaytdi.
Endi uni butun dunyo tanir,
davlat rahbarlaridan tortib
oddiy dehqongacha diydoriga
mushtoq edi. Gagarining
hayoti doimiy uchrashuvlar,

ziyofatlar va uzoq muddati
xizmat safarlaridan iborat
edi. Shunday obro'e'tiborga
qaramay, u kamtarligini saqlab
goldi.

GAGARIN VA JINA

Gagarin koinotga uchga-
nidan uch oy o'tgach, Moskva-
da xalqaro kinofestival bo'lib
o'tdi. Unda eng go'zal italyan
kino yulduzi Jina Lollobrigida
Gagarinni yoqtirib qoldi. Kino
aktrisasining o'zi shunday
deydi:

"Sayyoramizning barcha
ayollari uning tabassumi va
o'tkri nighiga oshiq edi.
Men ham bundan mustasno
emasdim. Kechasi Moskva
bo'ylab sayr qilganimizda, Yura
menga o'zingin fotosuratini
berdi. Uning orqa tomonida
shunday yozilgandi: "Men
osmonda ko'plab yulduzlarini
ko'rdim. Lekin senga o'xshashi
yo'q ular orasida!"

Valentina hammaning ko'z
o'ngida Jinan o'pgan Gagarin-
dan qattiq arazlagandi.

Ammo Gagarin ayolining ko'zi-
ga tik qarab shunday dedi:
"Jonim, hech kim osmonqa
chiqishimdan oldin ham, keyin
ham meni borimcha qabul
qilgan Valyusha bo'lomaydi.
Men so'nggi nafasimgacha
sen bilanman..."

Va u hayotining so'nggi
damilariga qadar va'dasida
turdi.

SO'NGGI PARVOZ VA SO'NGGI XAT

1968-yil 27-martda Gagarin
samolyoti havoga
ko'tarildi, lekin aerodromga
qaytmadi... Valentina erining
o'limidagi keyin uzoq vaqt o'ziga
kelolmadni. Ma'lum bo'lischicha,
Yuriy so'nggi parvozidan oldin
ayoliga shunday xat goldirgan:
"Agar menga biror kor-hol
bo'lsa, o'zimgni qayg'u bilan
o'ldirma. Axir hayot – hayot,
ertaga meni mashina bosib
ketmasligiga kim kafolat
beradi? Iltimos, qizlarimiza
g'amxo'rilik qil. Ularni oqibat
oyimchalar emas, haqiqiy

inson qilib tarbiyala. Shaxsiy
hayotining esa o'zing istagan-
day davom etti. Men senga
hech qanday majburiyat yukla-
mayman va bunga haqqim
ham yo'q".

MUHABBAT FAZOGIRI

Valentina Gagarina eridan
keyin bir umr yolg'iz yashadi.
Yuriyga bo'lgan muhabbatiga
sodiq qoldi. Menimcha,
birinchi kosmonavt ayol
Tereshkova emas, balki
Valentina Gagarinadir. Chunki
Yuriy o'n yillik turmush
davomida uni muhabbat
fazosining eng baland nuq-
tasiga olib chiqa olgandi.
Aytishlaricha, Valentina doim
osmonqa intizor boqar ekan.
Etimol, u har bir yulduzdan
Gagarininning bir zarrasini
izlagan. Go'yo Gagarin halok
bo'limgan-u, million zarraga
bo'linib, samoga sochilib
ketgan.

Otabek BAKIROV



TARMOQLARDA NIMA GAP?

MILLIY FOJIAMIZ

Bizning qishloqda (mahallamizda) bir yilda
50–70 ta to'y bo'ladi. Bitta to'ya kamida 50 min
so'm mablag' sarflanadi.

Arifmetika: $50\ 000\ 000 \times 60 = 3\ 000\ 000\ 000$

(3 mldr).

Qishlog'imizda har yili 3 mldr so'm mablag'
orzu-havasga surf bo'lmoida. O'zbekistonda
biznikiiga o'xshagan taxminan yana 10 mingta
mahalla bor.

Arifmetika: $10\ 000 \times 60 = 600\ 000$.

$600\ 000 \times 50\ 000\ 000 = 30\ 000\ 000\ 000$ (30 trln).

Bu taxminan 3 mldr dollar degani. Katta shaharlardagi
25 000 dollarlik tort, 90 000 dollarlik to'y kabi ahmoqona
dabdabalarni ham qo'shib, o'rtacha hisoblaganda,
taxminan 1 mldr dollar bo'ladi.

O'zbekistonagi oilalar byudjetidan har yili taxminan
10 mldr dollar mablag' havoga sovurilmoqda.

Buncha katta mablag'ni tasavvur qilish uchun qiyos
keltiraman: Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodini
fransuzlar 500 mln dollarga qurib bergan; o'z vaqtida "Asr
qurilishi" nomini olgan Toshg'uzor – Boysun – Qumq'or'on
temiryo'l liniyasi qurilishi 220 mln dollarga tushgan.

Fojiamiz shundaki, bu o'ta ahmoqona ish ekanligiga
hammamizning aqlimiz yetadi. Lekin shu ishni



qilaveramiz. Ushbu fikrlarni yozayotgan muallif ham o'z
vaqtida el qatori to'y qilgan.

To'yga sarflangan pulning bir kundan keyin qayerda
bo'lishini tasavvur qilaylik. Zora shunda, bu ishlarmizni
to'g'ri yo'liga solarmiz.

P/S: Bitta oila to'y qilishi uchun 3–5 yil yig'indasi. O'sha
oila 3 ta farzand: ikki o'g'il va bir qiz deb tasavvur
qiling. Demak, o'sha oila 5 marta to'y qiladi (ikki o'g'iga
sunnat va kelin to'y hamda qiz chiqarish). Arifmetika:
4x5=20. Demak, tipik o'zbek oиласидагар 20 yil umrini
faqat to'y qilishga sarflab yubormoqda.

Umid XO'JAMQULOV
Facebook

TILBILIM

“TALMOVSIRASH”DAGI “TALMOV” NIMA?

Tilimizda dovdirash, o'zini
yo'qitib qo'yish, ataylab
o'zini shunday holatga solish
talmovsirash so'zi bilan
ifodalanan. Kimdir nimanidir
bilib turib o'zini bilmaslikka
solsa ham talmovsirama,
deymiz. Xo'sh, bu so'z
o'zagidagi talmov so'zi qanday
ma'noni anglatgan?

"At-tuhfa" lug'atida talmov so'zi
masxaralash mazmunida keladi.
Mahmud Kosh'ariyda aynan talmov
so'zini uchratmadim, lekin talu so'zi
telba ma'nosida izohlangan.

Darhaqiqat, o'zini ataylab ten-
takka solayotgan yoki bilib-bilmaslik-
ka olayotgan odam holatida masxa-
ralashga xos ishora bor.

Eshqobil SHUKUR



BIR SAVOLGA BIR JAVOB

ENERGETIK ICHIMLIKLER:

KUCH BERADIMI, OLADIMI?

So'nggi paytlarda g'alati
bir holatning ko'p guvohi
bo'lyapmiz: aksar odamlar o'zini
sal behol, bemajol seza boshlasa,
energetik ichimlik izlab qol-
yapti. Simirska, go'yoki kuch olib
tetik-bardamlashadi. Aslida ham
shundaymi? Mavzu yuzasidan
oliy toifali kardiolog Odina
Malikovaga yuzlandik.

Bu ichimlik ilk bor 1960-yili Yaponiyada
dori vositasini sifatida yaratilgan.
Keyinchalik ustomon tadbirkorlar
mahsulotni ommalashtirish,
pul qilish uchun tarkibiga bir qancha
kimyoviy moddalar qo'shib hozirgi
ta'mni hosil qilishgan.

Tibbiyot energetik ichimliklarni
sog'iqliq uchun xavfli hisoblaydi. 2017-yili AQShda 16 yoshli o'smir o'limga
aynan ko'p miqdorda iste'mol
qiligan energetik ichimlik sabab
bo'lgani to'g'risida xabarlar ommada
sarosimani keltirib chiqargan. Eng
yomoni, yoshlar o'tasida bu kabi
o'limgar soni tabiiy ravishda ortib
bormoqda.

Energetik ichimliklar me'yordan
ortiqsa surunkali iste'mol qilinsa,
yurak tez urib, arterial qon bosimi
oshib ketishi yoki buyrak zo'riqishi
kuzatiladi. Shu bilan birga, bosh
miya, markaziy asab tizimi,
bo'g'imirlar va boshqa a'zolarga
jiddiy ziyan yetadi. Qolaversa,
ko'rish qobiliyatini ham susaytridi.
Ruhiy kasalliliklarga chalinish xavfi
ortadi, odamlarda tajovuzkorlik
kuchayadi. Bolalarning zehni
kuchayadi. Bolalarning zehni
pasayib ketishi, nogironi.



aqli zaif farzandlar tug'ilishi ham
bilvosita noto'g'ri iste'mol tartibi
asorati bo'lmoida. O'rni kelganda,
aytish joiz, homilador ayollar ham
undan tiyilmagani ortidan salbiy
oqibatlar kelib chiqmoqda.

Ichimlik tarkibidagi kofein vaqtin-
cha tetiklik bag'ishlab, charchoqni
aritsa ham, ma'lum vaqtidan so'ng
(deylik 1–1,5 soat o'tgach) organ-
izmda horg'inilik battar kuchayadi,
bosh og'rib, nafaqaq aqliy, jismoni
faoliyat ham susayadi.

Bunday ichimliklarning organizmiga
juda qisqa muddatda zarar yetkazadi.
Tarkibida ortofosfat kislotsati borligi
uchun buni vaqtida sezmaymiz.
Masalan, 45 daqiqadan so'ng dafoma-
nin ishlab chiqarilishi ortib, ichimlik
bosh miyada rohatlanish, qoniqish
markazini qo'zg'atadi. Bir yarim
soatlarda aks ta'sir yo'liga o'tib,
organizmda lohaslik boshlanadi. Bu
esa og'ir oqibatlarga ularib ketishi
mumkin.

Vasila HABIBULLAYEVA
tayyorladi.



Manzilim:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navori ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi:

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqt: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:10
Sotuvda narxi erkin.



Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haffaflik gazeta

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RİFAT MARKAZI**

O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI
FANLAR AKADEMİYASI

**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANТИRISH
JAMOAT FONDI**

**"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo
Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova
Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Mualif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
mualifiga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administrativasi
huzuridagi Axborot va omavviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi addadi – 8 050
Lotin yozuvidagi addadi – 12 617
Media kuzatuv